

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

“ BANK HISOBI VA AUDIT ” KAFEDRASI

XAYDAROV SARDOR BAXODIROVICH

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**“TIJORAT BANKLARINING ICHKI NAZORAT TIZIMINI
SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI”**

5230700 – “Bank ishi” bakalavriatta‘lim yo‘nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”	“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”
Fakultet dekani	“Bank hisobi” kafedrasi mudiri
_____ dots.i.f.n. R.Saidov	_____ i.f.n. Z.Umarov
“ ____ ” _____ 2017 y.	“ ____ ” _____ 2017 y.

Bitiruvchi: 5230700- “Bank ishi” -
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Xaydarov Sardor Baxodirovich

Ilmiy rahbar: _____ Navruzova K.N

Toshkent-2017

MUNDARIJA:	
-------------------	--

KIRISH		3
1-BOB.	BANK NAZORATINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA O'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMINING SHAKLLANISHI.....	7
1.1.	Bank nazoratining mazmuni, zarurati, vazifalari va turlari.....	7
1.2.	Ichki nazorat tizimining mazmuni, maqsadi,vazifalari va huquqiy- meyo'riy asoslari	17
	1-bob bo'yicha xulosa.....	24
2-BOB.	O'ZBEKISTONDA BANK ICHKI NAZORATINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....	25
2.1.	Ichki nazorat boshqarmasining maqsadi va vazifalari.....	25
2.2.	Tijorat banklarida ichki nazoratni amalga oshirish amaliyoti.....	30
2.3.	Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha ichki nazoratning tashkil etilishi.....	36
	2-bob bo'yicha xulosa.....	52
3-BOB.	O'ZBEKISTONDA BANK ICHKI NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	53
3.1.	O'zbekistonda bank nazoratini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	53
3.2.	Ichki nazoratni tashkil qilishning umumiy tamoyillari va ularning O'zbekiston bank tizimiga tadbiq etilishi.....	59
	3-bob bo'yicha xulosa.....	64
XULOSA VA TAKLIFLAR.....		65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bank tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, maqsadida 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni bank tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Yaqin besh yilgamo'ljallangan mazkur tarixiy ahamiyatga ega hujjatning uchinchi yo'nalishida "Bank faoliyatini tartibgasolishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, etakchi ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilish, moliya-bank sohasini islohetish"¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar bu boradagi keng ko'lamli islohotlar izchilligiga xizmat qiladi.

Har qanday davlat iqtisodiyoti tayanadigan asosiy ustunlardan biri - barqaror bank tizimi hisoblanadi. Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. "Tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qildi. Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2016 yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir."²

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida, ya'ni iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash davrida turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatida, shu jumladan tijorat banklarida bank nazorati mexanizmini yanada takomillashtirish masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bank tizimining samaradorligini oshirish banklarda bank nazorati tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 4947-sonli Farmoni.

²w.w.w.cbu.uz. Monetar siyosatining 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti

Bank nazoratining bosh vazifasi omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida bank tizimidagi tavakkalchilik darajasini tartibga solishdan iboratdir. Har qanday mamlakatda bank tizimining mustahkamligi, barqarorligi va ishonchli faoliyat ko'rsatishiga birinchi navbatda davlat manfaatdordir va shu munosabat bilan u tegishli nazorat idoralari orqali bank tizimi ustidan nazoratni tashkil etadi. Respublikamizda tijorat banklari ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi va shu asosda bank tizimini barqarorlashtirish, mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, to'lov intizomini taminlash borasida doimiy ravishda nazorat faoliyatini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qaroriga "2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi"ning nomli 1-ilovasida ham bank nazoratini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan edi. Jumladan, "Bank nazorati tizimiga, kapital etarililigiga bo'lgan talablarni takomillashtirishni, kutilayotganyo'qotishlar modeli asosida ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralarni shakllantirishni ko'zda tutuvchi Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tadbiq etish."³ lozimligi belgilab berilgan edi. Bank nazorati tizimiga Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalarini tadbiq etish vazifalari bosqichama-bosqich bajarib borilmoqda. Shu bilan birga, dasturida ichki nazorat tizimini takomillashtirishga alohida to'xtab o'tilgan. Jumladan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha, xalqaro andozalarini joriy qilish hamda ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash tizimlarini yanada takomillashtirish zarurligili qayd etib o'tilgan. Tijorat banklari ustidan olib boriladigan nazoratni kim tomonidan olib borilishiga ko'ra ichki va tashqi nazoratga bo'lish mumkin. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan, ya'ni Markaziy bank tomonidan tijorat banklari ustidan olib boriladigan nazorat tashqi nazorat, respublika tijorat banki ichki nazorat Boshqarmasining tijorat

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"ni 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli Qarori.

banklari filiallari ustidan olib boradigan nazorati ichki nazorat bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, har bir tijorat banklari filiallarida ichki nazorat xizmati ham faoliyat yuritib, bank operatsiyalarining bajarilishi ustidan ichki nazorat olib boradi.

Hozirgi kundaglobal ahamiyatga ega bo‘lgan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ham ichki nazorat olib boriladi. Bunday nazoratni olib borish uchun respublikamizda me‘yoriy-huquqiy baza shakllangan. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Har bir tijorat banki yuqoridagi yo‘nalish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari asosida ichki nazorat xizmatining vazifalari, huquqlari va javobgarligini belgilaydigan nizomni ishlab chiqqan. Filiallarda faoliyat yuritayotgan ichki nazorat xizmati xodimlari filialning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish yo‘nalishi bo‘yicha faoliyatini tashkil qiladi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni samarali aniqlash, oldini olish va ular haqida o‘z vaqtida bosh bank ichki nazorat boshqarmasiga xabar berish tadbirlarini amalga oshiradi. Shunday qilib, banklarning barqarorligini ta‘minlash maqsadida doimiy ravishda ichki nazoratni amalga oshirish muxim hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlar bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot predmeti tijorat banklari ustidan ichki nazorat o‘tkazish bo‘yicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisidan iborat.

Tadqiqotobyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari, jumladan, TIF Milliy banki Denov filialifaoliyati olingan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi ichki nazorat tizimiat tashkil etilishining me‘yoriy, huquqiy va amaliy jihatlarini o‘rganish va

takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Ushbu maqdadga erishish yo'lida quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- Bank nazoratining nazariy asoslari va uning turlarini o'rganish.
- O'zbekistonda ichki nazorat tizimining shaklanishi bilan tanishish.
- Tijorat banklarida ichki nazoratni amalga oshirish tartibini o'rganish.
- Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha ichki bank qoidalarining tadbiq etilishi bilan tanishib chiqish.
- Mavzuga oid amaliy takliflar ishlab chiqish.

Mavzuning nazariy - amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida olingan natijalar "Bank ishi" fanini o'rganishda qo'llanilishi, shuningdek, ulardan tijorat banklari tomonidan ichki nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi xajmi. Bitiruv malakaviy ishi 71 bet, 8 ta jadval va 6 ta rasmdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining 1-bobida bank nazoratining nazariy asoslari va O'zbekistonda ichki nazorat tizimining shaklanishi hamda huquqiy - meyo'riy asoslari yoritildi.

Bitiruv malakaviy ishining 2-bobida O'zbekistonda ichki bank nazoratini tashkil etish jumladan, banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo'yicha ichki bank nazorati amaliyoti o'rganildi va tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining 3-bobida O'zbekistonda ichki bank nazoratining metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari yoritildi.

1-BOB. BANK NAZORATINING MAZMUNI, VAZIFALARI VA O'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMINING SHAKLLANISHI

1.1. Bank nazoratining mazmuni, zarurati, vazifalari va turlari

Ma'lumki tijorat banklari faoliyatining barqarorligi jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining dahlsizligini, milliy iqtisodiyotga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirishining doimiyligini va bular asosida makroiqtisodiyotni bir tekisda rivojlanib borishini ta'minlaydi. Markaziy bank tijorat banklari faoliyatini tartibga solish orqali moliya-bank tizimining yuqori darajadagi likvidligini, banklarning to'lovga qobilligini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida uzluksiz faoliyat ko'rsatadigan to'lov tizimini yaratish orqali banklarning mijozlarini himoya qiladi.

O'zbekistonda tijorat banklari ustidan nazorat tizimi shakllangan va takomillashtirib borilmoqda. Buning natijasida oxirgi yillarda mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlilik darajasi bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me'yordan deyarli uch barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etmoqda.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan 2 pog'onali bank tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymay turib, davlat iqtisodiyotni yuksaltirish va uning barqarorligiga erishish mumkin emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Ikkinchi pog'onani esa, tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari tashkil etadi.

Bank tizimining bunday bo'linishi avvalambor, Markaziy bankning va tijorat banklarining maqsadlari, vazifalari va mavqeini belgilaydi. Tijorat banklari o'z faoliyatida jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishni tijorat asosida amalga oshiradilar. Markaziy bank esa mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini, respublika moliya sektorini mustahkamligini, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

Lekin bank tizimining samaradorligini oshirish yo'lida muammolar ham mavjud. "Mamlakatimiz bank tizimi va bozor infratuzilmasining boshqa idoralari faoliyati samaradorligini oshirish ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Afsuski, hozirgi kunda ularning faoliyati bugungi hayot va iqtisodiy islohatlar talablaridan ancha otrda qolmoqda."⁴

Har qanday davlatning iqtisodiyot sohasidagi pirovard maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni, yuqori bandlikni, barqaror ichki baholarning mavjudligini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida erishiladi. Iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismlari bo'lib, pul-kredit siyosati, byudjet siyosati, baho siyosati, ish haqi va bandlik siyosati hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati inflyasiyani jilovlash, ishlab chiqarishning pasayishi va ishsizlikning ko'payishini oldini olish, to'lov balansining muvozanatlashgan holatini saqlab turish, faol bozor kon'yunkturasini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan siyosatdir. Mazkur siyosat barcha davlatlarda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining qisqarishi, moliyaviy munosabatlarni erkinlashtirilishi barqaror pul-kredit tizimini rivojlantirishga imkoniyat tug'diradi. Ayni vaqtda, kuchayib boruvchi raqobat, o'zgaruvchan baholar sharoitida bank risklari va nobarqarorlik kuchayadi. Yirik banklarning bir vaqtning o'zida bankrot bo'lishi milliy iqtisodiyotga jiddiy ziyon etkazadi, to'lov tizimining izdan chiqishiga, pul taklifining keskin qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, bank tizimini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish orqali umumiy nobarqarorlik darajasini pasaytirish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti to'liq qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- a) pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;

⁴Sh.Mirziyoyev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: - "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil.

- b) iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorliklarga barham berish;
- c) banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- d) bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Turli mamlakatlarda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning turlicha mexanizmlari qo'llaniladi. SHuningdek, tashkiliy yondoshuvlar ham xilma-xildir. Ammo, bironta mexanizm kredit institutlarining joriy faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri davlatning aralashuvi mavjud bo'lgan sharoitda samara bermagan. Banklarni bankrotlikdan himoya qilish tizimida etakchi o'rinni banklarning ichki boshqaruv tizimining sifati egallaydi. Shu sababli, bank tizimini takomillashtirishga qaratilgan harakatlar bank muassasalarini rivojlantirish jarayonida ularni boshqarish va tartibga solishni mustahkamlash masalasiga yo'naltirilishi lozim.

Bank nazoratini amalga oshirishning bir qator sabablari manfaatlar nuqtai nazaridan kelib chiqadi va ular quyidagilardan iborat:


1. Banklar aholining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi.
2. Banklar kreditorlar manfaatini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llaniladi.
3. Hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil qilishga harakat qiladi. Bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlik darajasini kamaytiradi, shu bilan birga mamlakatdagi pul massasiga bilvosita ta'sir etib, inflyasiyani keltirib chiqaradi. Shuning uchun hukumat samarali bank nazoratini tashkil etishga xarakat qiladi.
4. Bank aksiyadorlari va ishchi –xizmatchilar xodimlar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati zarur.

Banklar ustidan nazorat qilish, ular faoliyatida muayyan cheklashlarni o'rnatish iqtisodiy erkinlikka zid bo'lgan holat sifatida qaralishi mumkin. Lekin, jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlarida banklar, shuningdek boshqa moliya tashkilotlarining faoliyatlari, aksariyat xolatlarda, davlat tomonidan tartibga solinadi. Boshqacha qilib aytganda, hatto rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida

moliyaviy sektor jiddiy ravishda tartibga solinar ekan, o'tish davrida buni to'la oqlash mumkin.

Tijorat banklarini nazorat qilish deganda, banklarning barqarorligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Keng ma'noda, bank nazorati bu - hukumat tomonidan moliyaviy sektorni ishonchliligini, barqarorligini ta'minlashda ishlatiladigan tizimdir.

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida ikkita muhim vazifa turadi:



1-rasm. Bank nazorati tizimlarining asosiy vazifalari⁵

Yuqoridagi rasmdan ko'rib turganimizdek, bank tizimini barqaror faoliyat ko'rsatishini kafolatlash, uni mustahkamlash hamda rivojlanishida hamkorlik qilish va barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish bank nazorati tizimlarining asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi.


Davlatning pul-kredit siyosati, xususan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish siyosati qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, Markaziy bankning yo'riqnomalari asosida amalga oshiriladi. Huquqiy me'yorlar banklar uchun majburiy bo'lgan cheklovlar va faoliyatining qat'iy chegaralarini belgilab beradi. Bu esa, bank yomon, sifatsiz boshqarilgan taqdirda jiddiy zararlar yuzaga kelishini oldini oladi. Bank faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini mustahkam

⁵ Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Darslik–T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007 yil. asosida muallif tomonidan tuzilgan

emasligi, banklarning bankrot bo'lishiga va umumiy nobarqarorlikni yuzaga kelishini kuchaytiradi.

Yuqorida bayon etilganlar, bank tizimini ishonchli tarzda himoya qilishni ta'minlaydigan huquqiy tartibga solish me'yorlarini yaratish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Masalan, iqtisodiy me'yorlar barcha tijorat banklariga nisbatan bir xil tarzda qo'llanilishi lozim. Aks holda, ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetga chiqib qoladi. Respublikamizda tijorat banklari faoliyatini tartibga solishga oid, dastlabki, iqtisodiy me'yorlar davlat ixtisoslashgan tijorat banklari va boshqa banklarga har xil o'rnatilgan bo'lib, bank nazoratining xalqaro me'yorlariga o'tish bilan bunday xolatlarga chek qo'yildi.

Tijorat banklarini nazorat qilish deganda, banklarning barqarorligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi.



2-rasm. Bank nazorati turlari⁶

Shunday qilib, bank nazoratini ikki turga bo'lish mumkin:

1. Ichki nazorat
2. Tashqi nazorat

Ichki nazorat tijorat banklarining ichki nazorat boshqarmasi va filiallarning ichki nazorat bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat tizimi tuzilmasi bank Bosh ofisining Ichki nazorat boshqarmasini, shuningdek, bank filiallaridagi Ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodimlarini o'z ichiga oladi.

Bosh ofisning ichki nazorat boshqarmasi va bank filiallaridagi ichki nazorat xodimlari o'z faoliyatlarini bankning barcha tarkibiy tuzilmalari va xodimlari bilan

⁶ Muallif tomonidan tuzildi.

uzviy bog‘liq holda tashkil etadi. Dasturlarni ishlab chiqishda Bosh ofis tarkibiy tuzilmalarining dolzarb masalalar bo‘yicha takliflari olinadi. Boshqarma o‘ziga yuklatilgan vazifalar va bajaradigan funksiyalar doirasida bank Boshqaruv Raisi topshiriqlari, ko‘rsatmalari, farmoyish va buyruqlarini sifatli va o‘z vaqtida bajarishni ta’minlaydi.

Ichki nazorat tizimi ichki nazoratni tashkil etish, xodimlar tomonidan qonun hujjatlari va ichki me’yoriy hujjatlar talablarini buzish holatlarini oldini olish va bartaraf etish masalalari bo‘yicha Markaziy bank va Departament bilan hamkorlik qiladi.

Amaldagi qonunchilikka asosan, respublikamizda tijorat banklari faoliyatini Markaziy bank tomonidan nazorat qilish belgilab berilgan bo‘lib, bu nazorat tashqi nazorat bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda Markaziy bankning tijorat banklari ustidan nazorat olib borishi uchun huquqiy va me’yoriy asoslar shakllangan va takomillashib bormoqda. Huquqiy bazaning yaratilishidagi dastlabki qadam «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunga asosan, tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilish Markaziy bankning asosiy funksiyalaridan biri deb belgilangan.

Hozirgi kunda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish Markaziy bankda tashkil qilingan ikki departament tomonidan olib boriladi. Tijorat banklariga litsenziya berish va ularning faoliyatini tartibga solish departamenti masofadan turib masofaviy nazoratni amalga oshirsa, tijorat banklarini nazorat qilish departamenti banklar faoliyatini joyida tekshirish bilan shug‘ullanadi, ya’ni inspeksion nazoratni amalga oshiradi.

Markaziy bank tijorat banklarini ro‘yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, qimmatli qog‘ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi. Berilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi axborot e’lon qilinishi, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi kerak hamda tanishib chiqish uchun ochiqdir. Bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistika hisobotini

yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo‘lgan qoidalarni ham aynan Markaziy bank belgilaydi. Banklar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro‘yxati ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ustav kapitallarini shakllantirishlari bo‘yicha talablar qo‘yiladi.

Tijorat banklarining ustav kapitallarini shakllantirishlari bo‘yicha talablar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1- jadval

O‘zbekiston Respublikasida yangi ochilayotgan banklarning ustav kapitalining eng kam miqdoriga nisbatan qo‘yiladigan talablar⁷

Yillar	Aholisi 0.5 mln. kishidan ko‘p bo‘lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Aholisi 0.5 mln. kishidan kam bo‘lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun	Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun	Xususiy banklar uchun
2000 yil 1 yanvardan	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	0.3 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2002 yil 1 yanvardan	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2006 yil 1 yanvardan	4 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2.0 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2007 yil 1 yanvardan	5 mln. AQSH dollari ekvivalentida		5 mln. AQSH dollari ekvivalentida	2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida
2008 yil 1 yanvardan	5 mln. evro ekvivalentida		5 mln. evro ekvivalentida	2.5 mln. evro ekvivalentida
2011 yil 1 yanvardan hozirgi kungacha	10 mln. evro ekvivalentida		10 mln. evro ekvivalentida	5 mln. evro ekvivalentida

⁷F. Mullajonov “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi” –T.: O‘zbekiston. 2011y. asosida tayyorlandi.


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2000 yillar boshida mamlkatimizda tijorat banklarining faoliyat boshlashlari uchun eng kam miqdori bank ochilayotgan shaharning aholi sonidan kelib chiqib belgilangan. Aholisi 500 ming. kishidan ko'p bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun 2.5 mln. AQSH dollari ekvivalentida, aholisi 500 ming kishidan kam bo'lgan shaharlarda ochilayotgan tijorat banklari uchun 1.25 mln. AQSH dollari ekvivalentida, xususiy banklar uchun 300 ming. AQSH dollari ekvivalentida va chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun 5 mln. AQSH dollari ekvivalentida shakllantirilishi lozim bo'lgan.

Biroq vaqt o'tishi bilan ushbu talablar o'zgarib, aholi sonidan qat'iy nazar me'yorlar belgilandi. Ustav kapitaliga qo'yiladigan minimal talablar oshirib borildi.

2011 yil 1 yanvardan bugungi kunga qadar faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik tijorat banklari va chet el kapitali ishtirokidagi banklar uchun 10 mln. evroning so'mdagi ekvivalentida va xususiy banklar uchun 5 mln. evroning so'mdagi ekvivalentida o'rnatilgan. Ustav kapital shakllantirilishi bilan birgalikda iqtisodiy me'yorlar sifatida aynan ushbu ustav kapitalni shakllantirish yo'llari va ustav kapitalni shakllantirgan sub'ektlarning moliyaviy holati ham alohida nazorat qilina boshlandi.

Markaziy bank tomonidan bank tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida banklarning kapitallashuv darajasini oshirishga doimo e'tibor qaratib keladi va tegishli chora-tadbirlar majmuini amalga ishirib keladi. 2016 yil davomida banklarning kapitallashuv darajasini oshirish maqsadida aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini bank kapitaliga jalb qilish uchun qo'shimcha aksiyalarni, shuningdek, boshqa qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish hamda ularni joylashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Natijada tijorat banklari jami kapitali yanada ko'paydi, tijorat banklari jami kapitali dinamikasini quyidagi 3-rasm ma'lumotlari orqali ko'rish ko'rish mumkin.



3-rasm. Tijorat banklari jami kapitali dinamikasi, mlrd.so‘m⁸

3-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tijorat banklarining umumiy kapitali 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, 2016 yilning 1 yanvariga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so‘mni tashkil etdi. 2016 yil davomida aksiyadorlik-tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalini oshirish maqsadida 401,4 mlrd. so‘mlik aksiyalar investorlar o‘rtasida, shundan, 245,7 mlrd. so‘mlik aksiyalar nodavlat sektori o‘rtasida joylashtirilgan.

Tijorat banklari jami kapitalining ko‘payishi asosan respublikamizda faoliyat yuritayotgan bir qator banklarning ustav kapitalini oshirish bo‘yicha hukumat qarorlarining bajarilishi natijasida amalga oshirildi.

2-jadval

2016 yil davomida ayrim tijorat banklari ustav kapitalining oshirilishi haqidagi ma’lumot, mlrd.so‘mda⁹

Banklar	DT Xalq banki	TIF Milliy bank	ATB Agrobank	ATB Mikrokredit-bank	ATB Qishloq qurilish bank
Oshirilgan ustav kapitali xajmi	54,0	75,0	50,0	25,0	25,0

⁸w.w.w.cbu.uz. Monetar siyosatining 2017 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 oktyabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2420-sonli va 2015 yil 25 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2325-sonli Qarorlari asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2325-sonli Qarori bilan 2015-2017 yillar davomida bank ustav kapitalini 185,0 mlrd. so‘mga oshirish orqali 385,0 mlrd. so‘mga etkazish, shu jumladan, 2016 yilda 54,0 mlrd. so‘mga oshirilishi yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 oktyabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2420-sonli Qaroriga muvofiq, 2016 yil davomida Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining ustav kapitaliga 75,0 mlrd. so‘m, «Agrobank» ATB ustav kapitaliga 50,0 mlrd. so‘m, «Mikrokreditbank» ATB ustav kapitaliga 25,0 mlrd. so‘m va «Qishloq qurilish bank» ATB ustav kapitaliga 25,0 mlrd. so‘mlik mablag‘lar joylashtirildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 dekabrdagi «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-2454-sonli Qarori talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan o‘tgan davr mobaynida zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hozirgi kunda bank faoliyatini nazorati uchta usul bo‘yicha amalga oshirilmoqda. Birinchi usul – Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini masofadan, ya‘ni ularni moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi usul– joylarda inspeksiya, ya‘ni barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo‘shimcha ma‘lumotlar tijorat banklarining o‘zida tekshirish o‘tkazish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Uchinchi usul – masofadan turib va joylarda tekshirish usullaridan bir vaqtda foydalanishdan iborat.

Respublikamizda bank nazoratida har ikkala usuldan foydalaniladi. Xuddi shu usullarga mos departament va boshqarmalar tashkil qilingan bo‘lib, ular birlari bilan chambarchas bog‘liq ravishda ish olib boradi. Masofadan turib nazorat o‘rnatish bank faoliyatiga oid moliyaviy va boshqa hisobotlarni tahlil qilish hamda tekshiruvdan o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Hisobotlar balans, foyda va zararlar

haqidagi hisobot, faoliyat turi, kreditlar, qo'yilmalar, majburiyatlar, kapital, likvidlik, ssudalar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi zaxiralar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Demak, masofadan nazorat qilish yoki uzoqlashtirilgan monitoring bank holatini so'nggi ma'lumotlar asosida baholash imkonini beradi. Ya'ni masofadan nazorat etish bank faoliyati samaradorligiga xalal berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab, kelgusida ular bilan bog'liq xarajatlarning oldini oladi.

Shunday qilib, bank nazorati oldida turgan asosiy vazifa, butun bank tizimini barqarorligini ta'minlash bo'lsada, lekin alohida olingan bank duch kelishi mumkin bo'lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni, oldini olish maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo'ldir.

1.2. Ichki nazorat tizimining mazmuni, maqsadi, vazifalari va huquqiy-meyo'riy asoslari

Ichki nazorat tizimi bankning kundalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga oid boshqarish mexanizmi bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqarish siyosati va tartibi;
- majburiyatlarning taqsimlanishi;
- vakolatlar;
- tekshirishlar tartibi;
- kundalik operatsiyalar ustidan nazoratni olib borish va ular hisobini yuritish;
- harajatlarni nazorat qilish.

Ichki nazorat tizimi ustidan muntazam nazoratni olib borish va uni takomillashtirish rahbarlar majburiyatidir. Nazorat tartiblari uchun javobgar xodimlar bevosita rahbariyatga hisobot berishlari lozim. Har bir tarkibiy tuzilma o'zi amalga oshirayotgan operatsiyalar ustidan ichki nazoratni olib borishi shart bo'lib, bunday nazorat mas'ul ijrochilardan tortib tuzilma boshlig'igacha barcha xodimlarning lavozim majburiyatlariga kirishi lozim. Aktsiyadorlar ham bank Kengashi va taftish komissiyasi orqali o'z ichki nazoratlarini amalga oshiradilar.

Bank ichki nazorati bank operatsiyalarining amalga oshirilishini nazorat qilish uchun bank tomonidan qabul qilinadigan usullar va yo'nalishlar majmuini

tavsiflaydi. Ichki nazorat ma'lum bir vaqtda amalga oshiriladigan jarayon sifatida qaralmaydi, aksincha bank faoliyatining barcha jabhalarida yzlyksiz ravishda amalga oshiriladi. Ichki nazorat bo'yicha umumiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

Ichki nazorat konsepsiyasi qator komponentlardan iborat bo'lib, ular:

- mazkur bankning ichki muhiti, ya'ni etik qadriyatlari, boshqaruv uslubi, qarorlarni qabul qilish jarayoni, vakolatlar berish va mas'uliyatni qabul qilish, ichki nazoratga nisbatan bank boshqaruvining munosabati;

- mazkur bankning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lidagi risklarni aniqlash, tahlildan o'tkazish va boshqarish;

- kundalik nazorat qilish, hisob va hisobot, vakolatlarning taqsimlanishi, monitoringi;

- axborotdan tegishli shaxslar tomonidan xizmat doirasida foydalanish;

- ichki nazorat tizimining samaradorligini aniqlash uchun uning o'zini nazorat qilishdan iborat.

Banklar uchun yaxlit moliyaviy maqsadga erishishni ta'minlash, omonatchilar aktivlarini himoyalash, turli o'g'irliklarga qarshi xavfsizlikni oshirish uchun samarali ichki nazorat juda muhim. Ichki nazorat tizimining murakkablik darajasi bank hajmi, uning tashkiliy tuzilishiga bog'liq holda o'zgaradi, shu bilan birga shunday elementlar mavjudki, bu elementlar har qanday tizimda mavjud bo'lishi lozim. Amaliy jihatdan banklarda amalga oshirilayotgan har bir bank operatsiyasi nazorat qilib turilishi kerak.

Ichki nazorat katta xatoliklar, yo'qotishlar va har qanday turdagi qonun buzilishlarga qarshi asosiy himoya mexanizmi hisoblanadi. Ichki nazorat bank operatsiyalarining ishonchliligi, xavfsizligi, samaradorligi va qonuniyligini ta'minlash uchun zarur. Bundan tashqari, nazorat tizimi yuqori darajadagi bank boshqaruvi uchun ham juda muhimdir.

Bank ichki nazoratiga turlicha ta'rif berilgan. Masalan, K.Navruzova, N.Karimov va U.Ortiqovlarning fikricha: "Bankda o'tkaziladigan har bir operatsiya albatta bank tomonidan tekshirib borilishi kerak, ya'ni bank operatsiyalari bajarilayotganda ular qonuniy rasmiylashtirilishi, hamda mablag'lar

va boyliklar but saqlanishi tegishlicha nazorat qilinishi ta'minlanmog'i lozim. Bu ichki bank nazoratidir.”¹⁰ Bu ta'rifda ichki bank nazoratiga asosan, bank operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish nuqtai nazaridan yondoshilgan.

“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunda ham ichki nazoratga ta'rif berilgan bo'lib, bu ta'rif quyidagicha: “Ichki nazorat pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir.”¹¹

Ushbu A.Omonov va T.Qoraliyevlar tomonidan yozilgan “Banklarda buxgalteriya hisobi.”nomli darslikgida ham bankichki nazorati haqida quyidagi fikrlar berilgan: “Bank hisob-operatsion xodimlarining kassa hujjatlari, memoreal hujjatlar va balansdan tashqaridagi hujjatlarni qabul qilish, ularni rasmiylashtirish, qayta ishlash va buxgalteriya hisobini amalga oshirish bilan bo'liq operatsiyalarni bajarish jarayoni bo'yicha bankichki nazorati amalga oshiriladi”¹² Bu ta'rifda ham bank operatsiyalarini rasmiylashtirishga e'tibornazar qaratilgan.

Ichki nazorat va ichki audit o'rtasidagiumumiyjihatlari, o'xshashliktomonlarimavjud.

Lekinshundaybo'lsada,ichkinazoratbilanichkiauditnazoratningharxilshakllarigakir adi. Ichki audit ichki nazorat elementlari, ya'ni nazorat muhiti, nazoratning tashqi va ichki taqsimoti, nazoratning boshqaruv, moliyaviy, buxgalteriya tizimi, xodimlar va bank bo'linmalari munosabatlarini, shuningdek maxsus tekshiruvlar natijasida joriy nazorat natijalarini tekshiradi.

Quyida keltirilgan3-jadvaldaichkinazoratvaichkiauditningqiyosiy tavsifini keltiramiz.3-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ichki nazorat va ichki audit faoliyati bir - biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, ichki audit o'z

¹⁰ K.Navruzova, N.Karimov,U.Ortiqov. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: Davr. 2012y.

¹¹ “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun. 2004 yil 26-avgust

¹² A.Omonov va T.Qoraliyev. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-Moliya. 2014y.

faoliyatini olib borishda mustaqillik maqomiga muntazam ravishda rioya qilishi lozim.

3– jadval

Ichki nazorat va ichki auditning qiyosiy tavsifi¹³

Qiyosiy belgilari	Ichki nazorat	Ichki audit
Nazorat sub'ektlari va xususiyati	Funksional bo'limlar mutaxassislari tomonidan o'tkaziladi	Ichki audit bo'limi xodimlari va taftish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi
Maqsad va vazifalari	Iqtisodiy sub'ektda moddiy, moliyaviy, mehnat resurslaridan samarali foydalanish izchil kuzatib boriladi	Bo'limlar ishining sifatini nazorat qilish va uni takomillashtirish xizmatlari ko'rsatish
Huquqiy maqomi	Tegishli bo'lim haqidagi nizom va lavozim majburiyatlariga rioya qiladi. Rahbar o'rinbosarlariga bo'ysunadi	Bank ustavi, ichki audit xizmati haqidagi nizomga rioya qiladi. Mustaqil bo'lim hisoblanadi
Faoliyatidagi cheklashlar	Boshqaruv qarorlari, rahbariyat ko'rsatmalari va farmoyishlariga bo'ysunadi	Audit ishi rejaga asosan amalga oshiriladi va hujjatlashtiriladi
Ko'rib chiqiladigan masalalarning muhimlik darajasi	Qabul qilinuvchi qarorlar ayrim bo'limlar va ularning xodimlari faoliyatiga tegishli bo'ladi	Tekshiruv natijalari bo'yicha qabul qilinuvchi qarorlar bank faoliyatiga tegishli bo'ladi
Boshqarishdagi o'rni	nazoratni ta'minlovchi va uning samarali ishlashi uchun shart-sharoit yaratuvchi mustaqil nazorat tizimi	ichki nazorat tizimi faoliyatini nazorat qiladi va unga baho beradi
Nazorat harakatlarini amalga oshirish texnologiyasi	Ma'muriy, buxgalteriya va iqtisodiy nazorat tamoyillari va usullaridan foydalanadi	Audit standartlari, maxsus tamoyillari va usullaridan foydalanadi
Natijalarni baholash va hujjatli rasmiylashtirish	Amalga oshirilayotgan xo'jalik operatsiyalariga bevosita tuzatishlar kiritish, ma'lumotnomalar tuzish	Auditorning ish hujjatlari va dalolatnomalar tuzish, natijalarni ko'rib chiqish, xulosalarni ta'riflash va tavsiyalar kiritish

¹³Xalqaro ichki auditorlik standartlaridasosida muallif tomonidan tuzildi.

Ichki nazorat va ichki audit bir-biridan maqsadi va vazifalari, nazorat sub'ektlari va xususiyati, huquqiy maqomi, ko'rib chiqiladigan masalalarning muhimlik darajasi, natijalarni baholash va hujjatli rasmiylashtirish, faoliyatidagi cheklashlar va boshqa qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Nazoratning maqsadi, bank mijozlariga xizmatlarni ko'rsatish jarayonidagi harakatlarning ketma - ketligini, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarining barcha turlarini butligi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlashdir.

Ichki audit xizmati, bank rahbariyati tomonidan joriy etilgan nazorat tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarning qanchalik samarali bajarilayotganligini tekshiruvchi tizimdir. Umuman, ichki audit bank kengashi uchun ichki nazoratning tarkibiy qismi, bank boshqaruvi uchun mustaqil tizimdir.

Shunday qilib, ichki nazorat bu- ichki auditdan farqli ravishda tegishli vakolatli bo'linmalar tomonidan bank operatsiyalarini bajarishda yoki bajarib bo'lingandan keyin hujjatlarning qonuniy va to'g'ri rasmiylashtirilishi, bank mablag'lar va boyliklar but saqlanishi nazorat qilinishidir. Ichki nazorat bank barcha bo'g'inlarida faoliyatni to'liq va sifatli tekshirish imkoniyatini yaratadi. Samarali bank ichki nazoratini shakllantirish bank boshqaruv organlariga yuklatiladi, biroq bu jarayonda har bir bank xodimi faol ishtirok etishi zarur.

Har bir davlatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ichki bank nazorati tizimi shakllangan, bo'lib, bu tizim – bankni boshqarish, zahiralarini to'ldirish, aktiv va passivlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish, aktivlar saqlanishini kuzatish bo'yicha, mustaqil ichki va tashqi auditga tegishli funktsiyalarni amalga oshirish bo'yicha vakolat va majburiyatlarni aniqlab beradi. Buning uchun ichki bank nazoratini tashkil qilishning huquqiy va meyo'riy asoslari ishlab chiqilgan va takomillashtirib borilishi kerak.

O'zbekistonda ichki bank nazorati tizimini tashkil qilish bo'yicha huquqiy va meyo'riy baza shakllangan. Ichki bank nazoratining huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Bank siri to'g'risida», «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunlari hisoblanadi.

O'zbekistonda ichki bank nazoratini tashkil qilish bo'icha me'yoriy asos sifatida esa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 23 oktyabrda 2023-son bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarsha kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari» hamda Markaziy bank tomonidan 2008 yil 18 oktyabrda 24|16-son bilan tasdiqlangan «Kredit tashkilotlarida ichki nazoratni tashkillashtirishga doir uslubiy ko'rsatma» talablari va bankning ichki me'yoriy hujjatlaridan foydalaniladi.

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga ko'ra, Markaziy bankning asosiy funksiyalaridan biri bu – “tijorat banklari faoliyatini boshqarish va nazorat qilishdir.”¹⁴ 2006 yilda “Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga ham o'zgarishlar kiritildi. Unga ko'ra, Markaziy bankning nazorat qilish sohasi yanada kengaydi, Markaziy bank tijorat banklari bilan birga mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyati ustidan ham nazorat olib boradi. Bank nazoratini tashkil qilishning huquqiy me'yoriy bazasi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bilan yanada mustahkamlandi. “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonunning 44-moddasi “Banklarni nazorat qilish”¹⁵ deb nomlanib, unga ko'ra, Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi, Markaziy bank tijorat banklaridan axborot berishni talab qilishga va ushbu qonunni bajarish maqsadida boshqa ishlarni amalga oshirishga haqlidir.

¹⁴«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonun.1995y 21-dekabr N 154-I

¹⁵«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1996 y. 26 aprel

Mamlakatimizda Ichki nazoratni tashkil qilish va samarali faoliyatini ta'minlash yuzasidan ichki me'yoriy hujjatlar tizimi yaratilgan. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 22 fevraldagi 3/6-son bayonnoma bilan tasdiqlangan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar

to'g'risida"gi 466-son Nizom bilan tartibga solinadi. Nizomga asosan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlari banklarda samarali ichki nazorat tizimini yaratish, bank faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchilikni samarali boshqarishni, xavfsiz va sog'lom bank faoliyatini yuritishni, bank qonunchiligiga to'liq rioya etilishini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish maqsadida ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan 674-sonli "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomada banklar uchun majburiy bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibini belgilaydi. Ushbu yo'riqnomada ichki bank nazorati 3 xil yo'nalishda, ya'ni dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazorat ko'rinishida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Banklarda bajarilgan barcha operatsiyalarining ushbu uch turdagi nazoratni bajarish tartiblari, kim tomonidan o'tkazilishi, nazorat jarayoni haqida yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Qarori asosida "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari" tasdiqlangan.

Qoidalar tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirish-ga qarshi kurashish maqsadida ichki nazoratni tashkil qilish hamda amalga oshirish tartibini belgilaydi. Qoidalarga asosan tijorat banklarida “Tijorat bankining ichki nazorat tizimi” tashkil etiladi. Unga ko’ra, “tijorat bankining ichki nazorat tizimi bu- mazkur Qoidalar va ichki hujjatlar bilan belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishga qaratilgan Ichki nazorat xizmatining tijorat bankining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradigan harakatlari yig‘indisidir.”¹⁶

Ichki nazoratni amalga oshirish maqsadida ichki nazorat xizmati tashkil etilib, u ichki nazoratni amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan tijorat bankining maxsus bo‘linmasidir. Ichki nazoratning amalga oshirilishi uchun mas’ul bo‘lgan tijorat banki bosh ofisidagi ichki nazorat xizmati xodimlari, tijorat banki filialidagi mas’ul xodim yoki ichki nazorat xizmati rahbari va xodimlari - ichki nazorat xizmati xodimlari bo‘lib hisoblanadi.

1-bob bo‘yicha xulosa

O‘zbekistonda tijorat banklari ustidan nazorat tizimi shakllangan va takomillashtirib borilmoqda. Buning natijasida oxirgi yillarda mamlakatimiz bank sektori kapitalining etarlilik darajasi bank nazorati bo‘yicha Bazal qo‘mitasi tomonidan 8 foiz etib belgilangan xalqaro me‘yordan deyarli uch barobar ko‘p bo‘lgan darajani tashkil etmoqda.

Bank nazorati ichki va tashqinazoratga bo‘linadi. Ichki nazorat bu - tegishli vakolatli bo‘linmalar tomonidan bank operatsiyalarini bajarishda yoki bajarib bo‘lingandan keyin hujjatlarning qonuniy va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, bank mablag‘larining but saqlanishini nazorat qilinishidir.

Ichki nazorat tizimi ichki nazoratni tashkil etish, xodimlar tomonidan qonun hujjatlari va ichki me‘yoriy hujjatlar talablarini buzish holatlarini oldini olish

¹⁶ “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalari.” (O‘z.R. AV.da 2009 yil. 23 oktabrda 2023-son bilan ro‘yxatga olingan.)

bo'yicha Markaziy bank va Departament bilan hamkorlik qiladi. Har bir davlatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham ichki nazorat tizimi shakllangan bo'lib, bu tizimning samarali ishlashi uchun ichki bank nazoratini tashkil qilishning huquqiy va meyo'riy bazasi yaratilgan va takomillashtirib borilmoqda.

2 - BOB. O'ZBEKISTONDA BANK ICHKI NAZORATINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI

2.1. Ichki nazorat boshqarmasining maqsadi va vazifalari

Ichki nazorat tizimi ichki nazoratni tashkil etish, xodimlar tomonidan qonun hujjatlari va ichki me'yoriy hujjatlar talablarini buzish holatlarini oldini olish va bartaraf etish masalalari bo'yicha Markaziy bank va Departament bilan hamkorlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vakolatli vakillari, tijorat bankining ichki audit xizmati, tashqi audit hamda Departament xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etilishini monitoring qiladi, hamda mazkur masalaga bog'liq bo'lgan Boshqaruv qarorlarini bankning hududiy filiallari va Bosh ofis tarkibiy tuzilmalari tomonidan bajarilishini o'rganadi hamda natijalari to'g'risida Boshqaruv Raisiga axborot tayyorlaydi. Belgilangan talablarga asosan Davlat soliq qo'mitasiga tegishli axborotlarni to'liq va o'z vaqtida uzatilishini nazorat qiladi.

Ichki nazorat tizimidagi asosiy strukturalardan biri-bu ichki nazorat boshqarmasidir. Ichki nazorat boshqarmasi Boshqaruv a'zolari majburiyatlarini taqsimlash bo'yicha buyruqqa muvofiq Boshqaruv Raisiga bo'ysunadi.

Ichki nazorat boshqarmasining asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:


- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga yo'naltirilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq opretsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish;

- bankning qasddan yoki qasddan bo'lmagan holda jinoiy faoliyatga jalb qilinishiga, uning ustav fondiga jinoiy faoliyat natijasida olingan kapitalning

shuningdek, bankni boshqarishga jinoyatchi shaxslarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash;

- bank ishining tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me’yoriy xujjatlarga muvofiqligini hamda bank xodimlari vakolatlarini suiste’mol qilishlari, xodimlar tomonidan bank etikasi, holatlarini nazorat qilishdan iborat. Ichki nazorat Boshqarmasi o‘zining tashkiliy tuzilmasiga ega.



4-rasm. Ichki nazorat Boshqarmasining tashkiliy tuzilmasi¹⁷

Rasmdan ko‘rib turganimizdek, ichki nazorat tizimi tuzilmasi bank Bosh ofisining Ichki nazorat boshqarmasini, shuningdek, bank filiallaridagi Ichki nazorat bo‘yicha mas’ul xodimlarini o‘z ichiga oladi.

Boshqarma ichki nazorat xizmatining hududiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ular ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida» gi Qonunga muvofiq boshqa qonun osti hujjatlari talablarining bankda o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini taminlaydi. Xususan, mazkur Qonunga muvofiq:

¹⁷Muallif tomonidan tuzilgan.

- qonun hujjatlariga muvofiq mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- mijozlarning haqiqiy egasini aniqlash va o'rganish, shuningdek operatsiyani amalga oshirishda foydalaniladigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulklarning manbasini aniqlash bo'yicha asosli va ko'rilishi mumkin bo'lgan choralarni amalga oshirish;

- qonun hujjatlari va ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan mezonlar asosida gumonli va shubhali operatsiyalarni aniqlash;

- ichki nazoratni amalga oshirish davomida aniqlangan shubhali operatsiyalar to'g'risidagi axborotlarni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi xuzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti nomidan Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizimni moliyalashtirishga qarshi kurashish Boshqarmasiga o'z vaqtida taqdim etish;

- Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi axborotni, shuningdek, identifikatsiyalash ma'lumotlarini va mijozlarni lozim darajada tekshirishga doir materiallarni qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida saqlanishini ta'minlash.

Bundan tashqari, ichki nazorat boshqarmasi shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan yoki amalga oshirishga bo'lgan urinishlar, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan mijozlar bilan aloqador shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, shuningdek bunday ma'lumotlarni boshqa tijorat banklari hamda davlat organlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq o'zaro almashib boradi.

Ichki nazorat boshqarmasi shuningdek, bank tomonidan bajariladigan pul o'tkazmalari, kredit, lizing va boshqa operatsiyalar bilan bog'liq barcha operatsiyalarning belgilangan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini nazorat qiladi. Bank amaliyotlarini bank tomonidan qabul qilingan siyosat, nizom va tartiblarga muvofiqligini hamda filiallar tomonidan bank amaliyotlarini amalga oshirishda bank tavakkalchiliklarini minimallashtirishni nazoratga oladi.

Ichki nazorat boshqarmasi ichki nazorat siyosati va qoidalarini hamda uning bajarilish dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun bank Kengashiga taqdim etadi. Bankda ichki nazorat siyosati va qoidalarini hamda uni amalga oshirish dasturini tatbiq qilinishini tashkillashtiradi. Ushbu maqsadda mas'ul xodim yoki ichki nazorat xizmati bank xodimlarining ichki nazorat dasturini amalga oshirishda mavjud bo'lgan savollariga maslahatlar beradi, shu bilan birga, taqdim etilgan

Ichki nazorat boshqarmasi o'z faoliyati davomida qator huquqlarga ega va bir qator majburiyatlarni bajarishi shart bo'lib hisoblanadi. Maxsus vakolatli davlat organining va Markaziy bankning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan bajarilgan operatsiyalar mavjudligini aniqlash to'g'risidagi so'rovnomasiga asosan mijozlar bazasi tarkibini inventarizatsiya qilish maqsadida Bosh ofisning barcha boshqarmalari hamda bankning filiallaridan zaruriy hujjatlarni va ma'lumotlarni talab qilish mumkin.


Ichki nazorat boshqarmasi o'z vakolati doirasida qonun hujjatlari bilan yuklatilgan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarish uchun zarur choralarni ko'rish, o'ziga yuklatilgan vazifalar va bajaradigan funksiyalar doirasida bank Boshqaruv Raisi topshiriqlari, ko'rsatmalari, farmoyish va buyruqlarini sifatli va o'z vaqtida bajarish, me'yoriy hujjatlarga zid bank amaliyotlarining bajarilishini oldini olish, qonunbuzarlik holatlari aniqlanganda zudlik bilan bank Boshqaruviga xabar berish majburiyatlarini bajaradi.

Bosh ofisning ichki nazorat boshqarmasi va bank filiallaridagi ichki nazorat xodimlari o'z faoliyatlarini bankning barcha tarkibiy tuzilmalari va xodimlari bilan uzviy bog'liq holda tashkil etadi. Dasturlarni ishlab chiqishda Bosh ofis tarkibiy tuzilmalarining dolzarb masalalar bo'yicha takliflari olinadi. Bankning ichki nazorat tuzilmasining boshliqlari va xodimlari o'z ish faoliyati davomida barcha tarkibiy tuzilmalar xodimlaridan belgilangan tartibda zarur bo'lgan hisobot, axborot, ma'lumot va tushuntirishlarni talab qilib olishlari mumkin. Bosh ofis, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar filiallarining mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi tegishli xodimlari ichki nazorat xodimlari

tomonidan talab qilingan barcha axborotlarni o'z vaqtida taqdim qilishlari va ular tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bergan tavsiyalarga amal qilishlari lozim.

Boshqarma boshlig'i boshqarmaning faoliyati, ish rejalarining bajarilishi haqida boshqarmaning ish rejasi asosida Bank Boshqaruviga hisobot taqdim etadi. Mijozni lozim darajada tekshirish jarayonida olingan mijoz to'g'risidagi ma'lumotlar mijoz so'rovnomasida qayd etiladi. Mijozlar so'rovnomalari mijozlar maqomi bo'yicha xronologik tartibda alohida jildlarda tikib boriladi va Ichki nazorat xizmati xodimi tomonidan saqlab boriladi. Mijoz so'rovnomasi bankda mijoz bilan munosabatlar to'xtatilgan kundan boshlab besh yildan kam bo'lmagan muddat davomida saqlanadi. Bank siriga oid hujjatlar alohida ro'yxatga olinadi va maxsus joyda saqlanadi.

TIF Milliy bankda ham ichki nazorat tizimi, y'ani Ichki nazorat xizmati shakllangan. TIF Milliy bank Bosh ofisning ichki nazorat Boshqarmasi va filiallarning Ichki nazorat xizmati tashkil etilgan. Buni 5 – rasmdan ko'rish mumkin.



5-rasm. Bankning ichki nazorat xizmati¹⁸

Rasmdan ko'rib turganimizdek, filiallardagi ichki nazorat xizmati xodimlari bevosita filial rahbariga bo'ysunadi. Ushbu tashkiliy tuzilma ichki nazorat


¹⁸TIF Milliy bankinging tashkiliy tuzilishi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

xodimining rahbarga aniqlangan kamchiliklar, aktivlardan samarali foydalanish yo'nalishlari haqida o'z vaqtida aniq axborotni yetkazib borishiga imkon yaratadi. Ichki nazorat xizmati boshqarmasi esa bank bo'g'inlaridagi nazorat tizimi uchun umumiy yo'riqlarni ishlab chiqadi, mas'ul xodimlarning xuquq va majburiyatlari, ish faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilab beradi. Umuman, filiallarning Ichki nazorat xizmati Bosh ofisning ichki nazorat Boshqarmasi va bank filiali rahbariga bevosita bo'ysunadi.

Bank Boshqaruvi ichki va tashqi vaziyatlarning o'zgarishini inobatga olgan holda, ichki nazorat tizimini doimiy ravishda monitoring qilib boradi va samaradorligini baholab boradi, shuningdek, zarur holda samarali ishlashini ta'minlash uchun uning faoliyatini kuchaytiradi.

2.2. Banklarda ichki nazoratni amalga oshirish amaliyoti

Ichki nazorat Bosh ofisning ichki nazorat boshqarmasi hamda bank filiallaridagi ichki nazorat xodimlari tomonidan olib boriladi. Bosh ofisning ichki nazorat va bank filiallaridagi ichki nazorat xodimlari o'z faoliyatlarini bankning barcha tarkibiy tuzilmalari va xodimlari bilan uzviy bog'liq holda tashkil etadi. Ichki nazorat sohasi juda keng qamrovli bo'lganligini hisobga olib, Republikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari amaliyotida tashkil etilayotgan ichki nazoratning asosiy ish yo'nalishlarini ikkita katta guruhga ajratib o'rganishimiz mumkin:



6-rasm. Ichki nazoratning asosiy ish yo'nalishlari¹⁹

Yuqoridagi rasmda ko'rib turganimizdek, banklarda ichki nazorat kundalik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishini nazorat qilish hamda banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat yo'nalishlariga bo'linadi.

Ichki nazoratning kundalik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishini nazorat qilishdagi asosiy meyoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2008-yil 3-mayda qabul qilingan 674-sonli "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma" hisoblanadi. Shuningdek tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan ichki meyoriy hujjatlar va xodimlarning xizmat vazifalari to'g'risidagi buyruqlar shular jumlasidan.

Ma'muriy va moliyaviy nazorat dastlabki, joriy va yakuniy nazorat tartibida amalga oshadi. Ma'muriy nazoratda ham xodimlar faoliyatining nazorati ham yuqorida ko'rsatilgan uch xil ko'rinishda amalga oshiriladi.

Dastlabki nazoratda bank xodimlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayoni nazoratga olinadi. Ichki nazorat xizmati bankda xodimlar bazasiga nisbatan o'rnatilgan mezonlarga amal qilinishini nazorat qiladi. Ushbu mezonlar xizmat yo'riqnomasida to'la aks ettiriladi. Bunda xodimning ma'lumoti, ish tajribasi va boshqa aloxida xususiyatlariga katta etibor beriladi.

Joriy nazoratda ichki nazorat xizmati bank xodimlari tomonidan operatsiyalar bajarishda qabul qilingan meyorlarga amal qilinishini doimiy monitoring qiladi. Shuningdek, xodimlarning o'z xizmat majburiyatlariga to'laqonli amal qilishi ham nazorat ostiga olinadi.

Yakuniy nazoratda bankda mavjud ma'lumotlardan xodimlarning foydalanish imkoniyati, ya'ni xodimning ma'lumotlar bazasiga kirish yoki kirmasligi to'la nazorat qilinadi.

¹⁹Muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi mavjud qonunchilikka asosan moliyaviy nazorat tizimida buxgalteriya operatsiyalarining dastlabki nazorati, agar bank tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofisga bo'lingan bo'lsa, Front-ofis xodimlari, buxgalteriya apparati bir butun yaxlit bo'lgan xollarda mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning bankning ichki siyoatiga hamda amaldagi qonunchilikka mos ekanligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Mijozlardan pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishda, ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan shakldagi to'g'ri rasmiylashtirilganligi, barcha rekvizitlar to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, ushbu pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligi, shu jumladan hisobvaraqni tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Agar mijoz taqdim qilgan pul hisob-kitob hujjatlarida belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, to'lov hujjatlari mijozga ijroga qabul qilinmasdan qaytarilishi lozim. Summasi, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan to'lov hujjatlari, hatto mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda tuzatish kiritilgan bo'lsa ham ijro uchun qabul qilinmaydi. To'lov talabnomalari sanasi bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri bor bo'lgan holatda inkassaga qabul qilinadi.

To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniladigan e'lonlarning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, aks holda ular ijro uchun qabul qilinmaydi. Mas'ul ijrochi buxgalter yoki Front-ofis xodimi to'lov hujjati nusxalarini imzolashdan oldin, ularni solishtirib, o'zaro bir xilligiga ishonch hosil qilishi lozim. SHundan so'ng, ijro etish sanasi ko'rsatilgan holda mas'ul xodim imzosi bilan tasdiqlangan va unga birlashtirilgan bank shtampi qo'yilgan hujjatning oxirgi nusxasi mijozga qaytariladi. Ushbu nusxa hujjatlar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlovchi tilxat vazifasini bajaradi.

Naqd pulni berishda ishlatiladigan cheklar to'ldirilgan kundan boshlab, to'ldirilgan kuni hisobga olmagan holda, 10 kalendar kun davomida bank

tomonidan qabul qilinadi. Mas'ul xodim qabul qilingan naqd pul chekinging sanasini, chekni topshirgan xo'jalik sub'ektining nomini va hisobvaraqa raqamini, olinadigan mablag'ning raqam va so'z bilan yozilgan summasini tekshiradi, chekdagi imzolar va muhr izini o'zidagi imzo namunalari bilan solishtiradi. Shuningdek, naqd pul cheklarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqadi.

Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalter mijozlardan qabul qilingan barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalariga asosan ma'lumotlarni dasturga kiritadi va to'lov hujjatlarini imzolab, elektron to'lov tizimi orqali ularni joriy nazoratdan o'tkazish uchun Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalterga yuboradi.

Shundan so'ng, buxgalteriya operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazish amalga oshiriladi. Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter bank ichki hujjat aylanish tartibiga asosan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterdan kelib tushgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilgandan keyin joriy nazoratni amalga oshiradi.

Joriy nazoratda dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nusxalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi qaytadan tekshiriladi hamda ulardagi imzolar va muhr izini o'zlarida mavjud imzolar va muhr izi namunalari bilan solishtiriladi.

To'lov hujjatlarining asl nusxasida Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini hamda ularni o'zida mavjud bo'lgan imzo namunalari mos kelishini tekshiradi. Shuningdek, Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalteri pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter naqd pul cheki va e'lonnomani o'rnatilgan tartibda tekshirib, ularni imzolab Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterga qaytaradi. Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bankning ichki moliya-ho'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nusxalari hamda ushbu operatsiyalarni amalga

osHIRISH uchun asos bo'lgan Xizmat farmoyishlarining nusxalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

Pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari yoki ularning elektron faylida xato va kamchiliklar aniqlanganda, Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekmasdan ularning xato va kamchiliklarini ko'rsatgan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterga ijrosiz qaytaradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan joriy nazorat natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda, u to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekadi va uni Bek-ofis boshlig'iga yoki bosh buxgalterga tasdiqlash uchun jo'natadi.

Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, dastlabki va joriy nazoratdan o'tgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilib oladi va ushbu to'lov hujjatlarida qonunchilik hamda bankning ichki siyosatida o'rnatilgan talablarga rioya qilinishi bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi.

Bek-ofis boshlig'i yoki Bosh buxgalter barcha pul hisob-kitob hujjatlarning asl va elektron nusxalariga o'rnatilgan tartibda imzo chekib, tasdiqlaydi va buxgalteriya o'tkazmalarini amalga oshiradi. Bank rahbari buyrug'i bilan to'lovlarni tasdiqlash boshqa bank xodimiga topshirilishi mumkin.

Banklarda amaliyot kuni yakunlangandan so'ng, kunlik operatsiya hujjatlari o'rnatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib yakuniy nazoratdan o'tkazish uchun yakuniy nazorat xizmati xodimlariga topshiriladi va ularga elektron ma'lumotlar bazasiga kirish uchun ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat xizmati tomonidan keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda elektron ma'lumotlar bazasiga kirib, bankda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Bosh va Yordamchi kitoblardagi amal qilib turgan Shaxsiy hisobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilganligini pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bilan solishtirib tekshirishdan o'tkazilishi shart. Tekshirish natijalari dasturiy bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi va kunlik yig'majildga tikilishi shart.

Kunlik chop etilib, yig'majildga tikilgan balans ma'lumotlari bilan uning elektron balans ma'lumotlari bir-biriga mos kelmagan holda, zudlik bilan

rahbariyatga ma'lumot beriladi va shu kunning o'zida uning sabablari to'g'risida Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter hamda Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish xizmati xodimlari ishtirokida dalolatnoma tuziladi.

Bundan tashqari, yakuniy nazorat xodim bank operatsiyalarini bajarish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilishga va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada to'g'ri va maqsadga muvofiq bajarilganligi bo'yicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.

4-jadval

Ichki nazorat xizmati tomonidan aniqlangan kamchiliklarning turlari²⁰

t/r	Yo'l qo'yilayotgan xatoliklar
1.	Pul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarda hujjatlardagi kamchiliklar.
2.	Kunlik hujjatlar papkasiga tikilgan hujjatlarning ayrimlarida imzolarning qo'yilmagan.
3.	Kunlik hujjatlar papkasiga tikilgan hujjatlarning ayrimlarida muhr qo'yilmagan yoki aniq emas.
4.	To'lov talabnomasini ro'yhatga olish jurnalida xatolarni tuzatish, bo'yash holatlari aniqlangan.

Filial ichki nazorat xizmati tomonidan aniqlangan kamchiliklarning asosiylargapul o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishda hujjatlardagi kamchiliklar, kunlik hujjatlar papkasiga tikilgan hujjatlarning ayrimlarida imzolarning va muhrning qo'yilmagan, olish jurnalida xatolarni tuzatish holatlarini kiritish mumkin.

Hozirgi paytda ichki nazorat mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha naqd pul operatsiyalariga etarlicha e'tibor bermaydi. To'lov navbatining buzilishi, naqd pul olingandan so'ng uni maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilmaslik oqibatida har xil ko'ngilsizliklar kelib chiqishi mumkin. Zero, Bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasining "Samarali bank nazoratining asosiy prinsiplari" 14 – bandida "bank

²⁰TIF Milliy banki Denov filialining ma'lumotlari asosida tuzildi.

nazorati organlari banklarning ichki nazorat faoliyati ko‘lami va xarakteri uchun etarli bo‘lgan vositalarga ega bo‘lishini aniqlashi kerak”²¹ deyiladi.

Bankda to‘lov talabnomalar va inkasso topshiriqnomalarining to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi tekshirilganda bank tomonidan mijozlarga berilgan kreditlar bo‘yicha hisoblangan, lekin hali olinmagan foizlarni undirish uchun qo‘yilgan to‘lov talabnomalarining rasmiylashtirishdagi kamchiliklari aniqlandi. Jumladan, to‘lov talabnomalarida bank boshqaruvchisi va bosh buxgalterining imzolari va bank muxri mavjud emas. Xuddi shunday analogik holat mijozlarga berilgan kreditlar bo‘yicha qarzdorliklarni undirish uchun qo‘yilgan to‘lov talabnomalarining rasmiylashtirilishida ham kuzatish mumkin.

Har bir tijorat bankida bank operatsiyalarini o‘tkazish mas’ul ijrochilar orqali amalga oshiriladi. Mijozlar bilan ishlashda Markaziy bankning barcha me’yoriy xujjatlariga amal qilish bilan birga “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazoratni tashkil etish qoidalari”ga ham amal qilish zarur.

2.3. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo‘yicha ichki bank nazoratining tashkil etilishi

Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bo‘yicha ichki bank nazorati “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyaorati lashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ba “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari" asosida tashkil etiladi.

“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2004-yil 26-avgustda qabul qilindi. Qqonun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish

²¹ Bazel qo‘mitasining “Samarali bank nazoratining asosiy prinsiplari” 1997 yil, 2006 yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

sohasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi va tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari tasdiqlandi. Har bir tijorat banki qoidalarga to'la amal qilishi va aniqlangan ma'lumotlarni o'z vaqtida maxsus vakolatli davlat organiga yetkazishi zarur.

"Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, shuningdek bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini yoxud pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir."²²

Tarifdan ko'rinadiki, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda tijorat banklari bevosita vositachilik rolini bajaradi, chunki iqtisodiyotda banklar deyarli barcha pul aylanmalarini amalga oshiradi. Shuning uchun so'nggi yillarda banklar faoliyatida ichki nazoratning alohida bir yo'nalishi sifatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish qoida-tartiblari ishlab chiqilgan. Banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha tijorat banklari ichki nazorat tizimining maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

²²"Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 3-modda.

1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan operatsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish.

2. Tijorat bankining qasddan yoki qasddan bo‘lmagan holda jinoiy faoliyatga jalb qilinishiga, uning ustav fondi (kapitali)ga jinoiy faoliyat natijasida olingan kapitalning, shuningdek tijorat bankini boshqarishga jinoyatchi shaxslarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik.

3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tijorat banklari ichki nazorat tizimining asosiy vazifalari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardir:

- Tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish, boshqarish, kamaytirish va hujjatlashtirish bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rish;

- oshirishda foydalaniladigan pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulklarning manbasini aniqlash bo‘yicha asosli va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan choralarni amalga oshirish;

- belgilangan mezonlar asosida gumonli va shubhali operatsiyalarni aniqlash;

- ichki nazoratni amalga oshirish davomida aniqlangan shubhali operatsiyalar to‘g‘risidagi axborotlar (hujjatlar)ni Departamentga o‘z vaqtida taqdim etish;

- yuridik yoki jismoniy shaxs hisobvarag‘iga tushgan pul mablag‘larini hisobga kiritish bo‘yicha operatsiyalarni istisno etgan xolda, alohida hollarda xabar qilinishi lozim bo‘lgan operatsiyalarni, bu operatsiya bajarilishi lozim bo‘lgan sanadan e’tiboran uch ish kuniga to‘xtatib turish hamda bunday operatsiya haqida operatsiya to‘xtatib turilgan kunning o‘zida Departamentni xabardor qilish, bunda operatsiya bajarilishi lozim bo‘lgan sanadan e’tiboran uch ish kuniga to‘xtatib turishga alohida e’tibor qaratilishi lozim;

- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq ma’lumotlarning mahfiyligini ta’minlash;

- shubhali operatsiyalar amalga oshirilgan yoki amalga oshirishga bo'lgan urinishlar, shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan mijozlar bilan aloqador bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.

Bundan tashqari, ichki nazorat tizimining vazifalariga respublikadagi va chet eldagi boshqa banklar bilan korrespondentlik aloqalarini o'rnatishda ularning ichki nazorat tizimini o'rganish, so'rovlar bo'yicha mijozlar bazasidan terrorchilik faoliyatini moliyalashtirishga aloqador shaxslarni aniqlash ҳам киради.

Tijorat bankining ichki nazorat tizimi bank ishining jihatlari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari, mijozlar bazasi va mijozlar hamda ularning operatsiyalari bilan bog'liq tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. Tijorat bankining, shu jumladan, uning filiallarining ichki nazorat tizimi tarkibiy tuzilmasi tijorat banki boshqaruvi qarori bilan belgilanadi. Tijorat bankining ichki nazorat tizimi tarkibiy tuzilmasi aniqlangan tavakkalchiliklar va ularning bahosidan kelib chiqib hamda Markaziy bankning talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Tijorat banklari quyidagi hollarda mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha mustaqil ravishda chora-tadbirlarni ko'rishlari kerak:

1. Xo'jalik va fuqaroviy-huquqiy munosabatlarni o'rnatishda, shu jumladan, yuridik yoki jismoniy shaxs bank hisobvarag'ini ochish uchun ariza bilan murojaat qilganda, jismoniy shaxs bank plastik kartasini olish uchun ariza bilan murojaat qilganda, yuridik yoki jismoniy shaxslar tijorat banki tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun ariza bilan murojaat qilganda.

2. Bir martalik operatsiyalar amalga oshirilgan quyidagi hollarda:

- eng kam ish haqi miqdorining 100 baravariga teng yoki undan oshgan summada jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasi sotilishida;

- eng kam ish haqi miqdorining 25 baravariga teng yoki undan oshgan summada jismoniy shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasining maydalanishida, almashtirilishida va (yoki) konversiyalanishida;

- jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasining inkassoga va ekspertiza uchun qabul qilinishida;

- jismoniy shaxslar tomonidan tijorat bankida joylashgan terminallar orqali plastik kartalardan foydalanilgan holda operatsiyalar amalga oshirilganda;
- mijozlar tomonidan plastik kartalardan naqd chet el valyutasi olinishida;
- jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasining sotib olinishi;
- bank hisobvarag'ini ochmasdan yoki hisobvaraqdan foydalanmasdan, pul o'tkazmalarini amalga oshirishda yoki qabul qilishda.

3. Shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

4. Mijoz to'g'risida avval olingan ma'lumotlarning to'g'riligiga yoki etarli ekanligiga nisbatan gumonlar mavjud bo'lganda.

Tijorat banki tomonidan jismoniy shaxs - mijozni identifikatsiyalash shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosadigan hujjat) asosida amalga oshiriladi. Yuridik shaxslarga nisbatan mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar bajarilayotganda tijorat banklari ulardan davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlarni, rahbariyati haqidagi, shuningdek ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni olishlari lozim.

Yuridik shaxslarni lozim darajada tekshirish jarayonida tijorat banki pirovard natijada mijozning mulkdori bo'lgan yoki mijozni nazorat qiluvchi mijozning haqiqiy egasi - jismoniy shaxsni identifikatsiyalash bo'yicha, shu jumladan, mijozning hamda uning ta'sischilari (jamiyat aksiyalarining kamida o'n foiziga ega bo'lgan aksiyadorlari, ishtirokchilari)ning mulk va boshqaruv tuzilmasini o'rganish orqali asosli va imkoni mavjud bo'lgan choralarni ko'rishi lozim.

Tijorat banklarining chet eldagi sho'ba banklari, filiallari va vakolatxonalari agarda ular joylashgan mamlakatning qonun hujjatlarida tijorat banking ichki qoidalariga nisbatan engilroq ichki nazorat choralari belgilangan bo'lsa, ular jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda tijorat banking ichki qoidalariga rioya qilishlari kerak.

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi kompaniyalar bilan munosabatlar o'rnatilishida va amalga oshirilishida bunday

tashkilotni identifikatsiyalashdan tashqari, tijorat banki quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

-ochiq ma'lumotlar asosida tashkilotning obro'sini, jumladan, ushbu tashkilotga nisbatan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga oid kamchiliklar yuzasidan tergov olib

borilgan yoki borilmaganligini aniqlash;

- elektron to'lovlar to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni saqlash.

- xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilan vakillik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qaror tijorat banki boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha, shu jumladan, xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali operatsiyalarni amalga oshiruvchi tijorat banklari o'zlarining bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi bo'linmalari va ushbu bo'linmalar xodimlarining hisobini yuritishlari, pul o'tkazmalariga oid operatsiyalarni jismoniy shaxs - mijozlarni lozim darajada tekshirgandan so'ng amalga oshirishlari lozim. Shuningdek, jo'natiladigan pul o'tkazmalarini mijoz-jo'natuvchi haqidagi shaxsni tasdiqlovchi hujjat seriyasi va raqami, agar operatsiya jarayonida hisobvaraqa ishlatilgan bo'lsa, u holda uning raqami yoki operatsiyaning xos raqami va oluvchi haqidagi aniq ma'lumotlar bilan birga yuborilishini ta'minlashlari shart.

Oluvchisi va jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalarini aniqlash bo'yicha asosli va imkoni mavjud bo'lgan choralarni ko'rishlari, oluvchisi va (yoki) jo'natuvchisi haqidagi talab qilingan ma'lumotlarga ega bo'lmagan xalqaro pul o'tkazmalari aniqlanganda tijorat banki tomonidan ko'riladigan choralar tartibini belgilovchi, tavakkalchiliklarni baholashga asoslangan ichki hujjatni ishlab chiqishlari kerak. Tijorat banklari norezident-vakil banklardan va xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan ular bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq pul mablag'larini jo'natuvchilari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni uch ish kuni davomida olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Mijoz va mijozning haqiqiy egasini identifikatsiyalashda tijorat banki olingan ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Departament tomonidan

shakllantiriladigan va tijorat banklariga taqdim qilinadigan haxslar ro'yxati hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlar ro'yxati bilan solishtirib chiqishi shart.

Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarning biri mavjud bo'lganda gumonli operatsiya deb tan olinadi:

- rezident-mijoz tomonidan tovar etkazib berish shartnomasi bo'yicha avval olingan summaning nerezident foydasiga muntazam ravishda qaytarib berilishi;

- operatsiyani amalga oshirish uchun ariza bilan murojaat qilinganda mijozning xatti-harakatlarining g'ayrioddiylik, masalan: asabiylashishi, ikkilanish, mijozning harakatlarini boshqarib turuvchi shaxslarning mavjudligida uning agressivligi yoki uning boshqa shaxslarga arzimas sabab yuzasidan telefon orqali maslahat uchun murojaat qilishi;

- amalga oshirilayotgan operatsiya bo'yicha mijoz hamkorlarini aniqlash imkoni yo'qligi;

- mijoz faoliyati tavsifiga bog'liq bo'lmagan holda uning hisobvarag'ida pul mablag'lari aylanmasining asossiz ko'payishi;

- hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi mijozning odatiy faoliyatidan farq qiluvchi nostandart yoki g'ayrioddiy murakkab sxemalardan iborat bo'lishi;

- jismoniy shaxs tomonidan ayirboshlash kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng bo'lgan yoki undan oshadigan summada bir qiymatdagi banknotlarni boshqa qiymatdagi banknotlarga ayirboshlash;

- jismoniy shaxs tomonidan operatsiya amalga oshirilish kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summada naqd pul ko'rinishidagi pul mablag'larini yuridik shaxsning yoki yakka tartibdagi tadbirkorning bank hisobvarag'iga qarz, kredit, moliyaviy yordam, ustav fondiga qo'yilma sifatida kiritilishi.

Demak, yuqorida keltirilgan operatsiyalar gumonli operatsiyalar hisoblanadi.

Gumonli operatsiya jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga yuridik shaxslar

yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobvaraqlaridan operatsiya amalga oshirilish kuniga belgilangan eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan summadagi pul mablagʻlarining dividend sifatida koʻchirilishi, bir kontragentning terminalidan bir kun davomida besh va undan ortiq xalqaro toʻlov kartalaridan har bir kartaning operatsiyasi miqdori eng kam ish haqining 25 baravariga teng boʻlgan yoki undan oshadigan summadagi operatsiyalar, yʻani toʻlov yoki naqd pul echilishida amalga oshirilishida ham namoyon boʻladi.

Operatsiyalar quyidagi mezon va alomatlarining biri mavjud boʻlganda shubhali operatsiya deb tan olinadi:

- operatsiya bajaruvchi tomonlardan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki roʻyxatga olingan shaxs boʻlsa;

- jismoniy shaxslar tomonidan, shu jumladan, pul oʻtkazmalari tizimlari orqali bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida koʻp marotaba eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasida chet eldan joʻnatilgan pul mablagʻlari olinishi yoki chet elga pul mablagʻlari joʻnatilishi;

- jismoniy shaxslar tomonidan bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida koʻp marotaba eng kam ish haqining 500 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasidagi pul mablagʻlari sotilishi yoki sotib olinishi;

- Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqariga anonim shaxsga ochilgan hisobvaraqa pul mablagʻlari koʻchirilishi hamda Oʻzbekiston Respublikasiga anonim shaxsga ochilgan hisobvaraqdan yoki joʻnatuvchisi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mavjud boʻlmagan pul mablagʻlarining oʻtkazilishi.

Pul mablagʻlari Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqariga offshor hududlarda doimiy yashovchi yoki roʻyxatga olingan shaxslarning hisobvaragʻiga yoki foydasiga oʻtkazilishi, yoxud bunday shaxslarning hisobvaragʻidan Oʻzbekiston Respublikasiga 30 kun davomida oxirgi oʻtkazish kunida belgilangan

eng kam ish haqining 500 baravariga teng bo'lgan yoki undan oshadigan umumiy summada mablag'lar bir marotaba yoki ko'p marotaba o'tkazilishi ham shubhali operatsiya deb tan olinadi.

Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshiriladigan operatsiya yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda, Ichki nazorat xizmati ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritishi shart. Ichki nazorat xizmati ichki qoidalarda belgilangan tartibda yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiritilgan barcha mijozlarning hisobini yuritishi kerak. Mijozlarni identifikatsiyalash va ular operatsiyalarining joriy tekshiruv lavozim majburiyatlariga muvofiq tijorat bankining mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi xodimlar tomonidan o'tkaziladi, ular shubhali va (yoki) gumonli alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlagan taqdirda bunday operatsiyalar haqida bevosita o'z rahbariga va Ichki nazorat xizmati xodimlariga yozma ravishda zudlik bilan xabar berishi lozim.

Mijozlar operatsiyalarining keyingi tekshiruv Ichki nazorat xizmati xodimlari tomonidan joriy tekshiruv jarayonida aniqlanmaydigan shubhali operatsiyalarni aniqlash maqsadida, mijozning o'tgan davr mobaynida bajargan operatsiyalarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Gumonli va shubhali operatsiyalar alomatlari mavjud operatsiyalar aniqlanganda tijorat bankining mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatuvchi xodimlari Ichki nazorat xizmatining topshirig'iga binoan zarur hollarda o'tkazilayotgan operatsiya haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar yuzasidan mijozga murojaat qiladilar.

Operatsiyalarni shubhali deb tan olish har bir alohida holatda mazkur Qoidalar hamda tijorat bankining ichki qoidalari bilan belgilangan mezonlar va operatsiyasi shubhali deb tan olingandan so'ng, Ichki nazorat xizmati quyidagi choralarni ko'rishi kerak:

- shubhali operatsiya to'g'risida Departamentga xabar berish;
- mijoz to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish;
- mijozning tavakkalchilik darajasini qayta ko'rib chiqish;
- mijozning operatsiyalari ustidan monitoringni kuchaytirish;

- qonun hujjatlariga va mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq shartnoma munosabatlarini to'xtatish masalasini ko'rib chiqish.

Shubhali operatsiya haqidagi xabar Ichki nazorat xizmati tomonidan shubhali operatsiya aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq Departamentga beriladi.

Har bir xabar to'g'risidagi ma'lumot maxsus jurnalga kiritiladi. Ichki nazorat xizmati har kuni Departamentga yuborilgan xabar haqida, elektron xabardagi barcha axborotlar aks ettirilgan jadvalda qog'oz shaklida ma'lumot shakllantiradi. Mazkur jadval ijrochi tomonidan imzolanishi va Ichki nazorat xizmati rahbari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

TIF Milliy bankida ham "Ichki nazoratni tashkil qilish qoidalari" tasdiqlangan va undan bankning barcha bo'linmalari va filiallarida yuridik hujjat sifatida foydalaniladi. TIF Milliy bankida ichki nazorat tuzilmasiga aloqador bo'g'inlar «Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat» boshqarmasini ham keltirish mumkin. Bankda ichki nazorat xizmati «Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat» boshqarmasi tarkibida tashkil qilingan.

«Tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat» boshqarmasini o'z faoliyatida bankning boshqa bo'linamalaridan mustaqil bo'lib, filiallarda faoliyat yuritayotgan ichki nazorat xizmati xodimlarining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha faoliyatini masofadan turib nazorat qiladi. Filiallarda faoliyat yuritayotgan ichki nazorat xizmati xodimlari esa filialning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish yo'nalishi bo'yicha faoliyatini tashkil qiladi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga yo'naltirilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni

samarali aniqlash, oldini olish va ular haqida o'z vaqtida bosh bank ichki nazorat boshqarmasiga xabar berish tadbirlarini amalga oshiradi.

TIF Milliy bankida shubhali va gumonli operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar to'g'risida "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari"ga asosan tegishli boshqarmalarga xabar beriladi.

Shubhali operatsiyalar hamda shubhali deb topilgan gumonli operatsiyalar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar, shuningdek, qonun hujjatlari buzilishi dalillari to'g'risidagi axborotlar quyidagi ketma-ketlikda tegishli boshqarmalarga yetkaziladi:

- Filial xodimi
- Filialdagi ichki nazorat xodimi
- Bosh bank ichki nazorat xizmati (LOTUS kanali orqali ichki nazorat xizmati boshlig'i o'rinbosari adresiga)
- shubxali operatsiyalar xamda shubxali deb topilgan gumonli operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Departamentga belgilangan tartibda elektron ko'rinishda taqdim etiladi
- qonun buzilishi dalillari to'g'risidagi axborotlar bank Boshqaruvi raisi (yoki bank Boshqaruvi) ga yakuniy qaror qabul qilish uchun kiritiladi.

Berilgan ma'lumotlar asosida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

TIF Milliy banki izimida ichki nazorat xizmati samaradorligini oshirib borish maqsadida xodimlarning malakasini oshirishga aloxida e'tibor qaratiladi. Bunda xodimlarga jinoiy faoliyatga qarshi kurashish sohasidagi so'nggi yangiliklar va rivojlangan banklar amaliyotlari bilan tanishtirib boriladi.

Shunga qaramay, ichki nazoratni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar uchrab turadi. Masalan, ichki nazorat jarayonida optimal shtat birligiga ega bo'lish juda muhim va ish sifatiga bevosita ta'sir etadigan omildir. Ma'lumotlar ochiqligining etishmasligi ham ichki nazorat tizimiga, ichki nazoratning samarali

tashkil qilinishiga salbiy ta'sir lo'rsatadi. Bank ichki nazoratini bankka maksimal darajada foyda keltirishi uchun unga bankniig boshqa bo'limlariga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlar ochib berilishi lozim. Ishonch muhiti esa kuchli va zaif tomonlarni baham ko'rishga imkon yaratadi.

Umuman, samarali bank ichki nazoratini tashkil etish asosida o'tgan bir necha yillar mobaynida bank tizimi sezilarli darajada rivojlandi. «Tijorat banklarining kapitallashuvini oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qildi. Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2016 yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir.»²³ Respublikamiz bank tizimida kapital etarliliigi va likvidlik darajasining yuqoriligi, aktivlari sifati va salohiyatining oshishiga zamin bo'lmoqda. Quyidagijadvalma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasiko'rish mumkin:

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi²⁴, (yil oxiriga, trln. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2014 yil	2015 yil	2016 yil
1.	Tijorat banklari umumiy kapitali	63.1	77.8	93.5
2.	Tijorat banklari depozitlari	27.8	35.6	44.6
3.	Tijorat banklari kreditlari	33.5	42.7	53.4

²³ w.w.w.cbu.uz. Monetar siyosatining 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti

²⁴ w.w.w.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Monetar siyosatining 2014-2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4.	Tijorat banklari aktivlari	52.1	65.2	80.4
----	----------------------------	------	------	------

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014-2016 yillarda respublikamiz tijorat banklarining umumiy kapitali va depozitlarining miqdori yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining o'sish tendentsiyasini yuzaga keltirgan. Natijda, tahlil qilingan davr mobaynida respublikamiz tijorat banklarining aktivlari yuqori sur'atda o'sgan. Bank kreditlari mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlari hajmidagi salmog'i jihatidan birinchi o'rinni egallaydi. Kredit qo'yilmalarining yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlashda iqtisodiyotning real sektoriga berilgan investitsion kreditlar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan kreditlarning o'sishi muhim rol o'ynadi. Jadval ma'lumotlaridan yuqorida o'rganilayotgan barcha ko'rsatkichlar o'tgan 2016 yilda ham o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin.

2016 yil yakuniga ko'ra tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarning umumiy hajmi 2015 yilga nisbatan 25,2 foizga oshib, 44,6 trln. so'mga etgan. Tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2015 yildagiga nisbatan 23,3 foizga oshib 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 80,4 trln. so'mni tashkil etgan, jumladan, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi ham 2016 yilda 25,1 foizga, tijorat banklari umumiy kapitali ham 20,3 foizga oshib yil boshiga 93,5 trln. so'mga etkazilgan.

6-jadval

TIF Milliy banki Denov filiali faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari²⁵

t/r	Ko'rsatkichlar	01.01.2016y.	01.01.2017y.	O'zgarishi	
				Summasi	%da
1.	Aktivlar, mln.so'm	79952.3	98839.2	18886.9	23.6
2.	Kreditlar, mln.so'm	53246.8	65895.7	12648.9	19.9
3.	Kapital, mln.so'm	942.0	1127.1	185.1	19.6

²⁵ TIF Milliy banki Denov filialining balans hisoboti ma'lumotlari asosida tuzildi.

4.	Depozitlar, mln.so'm	7906.4	9311.3	1404.9	17.8

Jadval ma'lumotlaridan yuqorida o'rganilayotgan barcha ko'rsatkichlar o'tgan 2016 yilda o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rish mumkin. TIF Milliy banki Denov filiali aktivlarining umumiy summasi 2015 yildagiga nisbatan 23,6 foizga oshib 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 98839.2 mln. so'mni tashkil etdi. Filialning kredit qo'yilmalari hajmi ham 2016 yilda 19.9 foizga oshib, 75895.7 mln. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

Filialning umumiy kapitali ham 19.6 foizga oshib, joriy yil boshiga 1127.1mln.so'mga etkazilgan. Ustav kapitalining oshishi bankning moliyaviy barqarorligiga va mijozlar oldida ishonchning oshishiga olib keladi. TIF Milliy banki Denov filiali tomonidan jalb qilingan depozitlari hajmi 2016 yilda 1404.9mln. so'm yoki 17.7 foizga o'sib, 2017 yilning boshiga 9311.3 mln. so'mga etgan. Umuman, yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, TIF Milliy banki Denov filiali tomonidan jalb qilingan depozitlar salmog'I, aktivlari, umumiy kapitali va kredit qo'yilmalari hajmi ham 2016 yilda 2015 yilga nisbatan o'rtacha 20 foiz atrofida oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich respublikamiz darajasidan birmuncha pastroq ekanligini kuzatish mumkin.

TIF Milliy bankining Denov filiali resurs bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratib keladi. Buni filial tomonidan qabul qilingan depozitlar xajmi haqidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

7-jadval

TIF Milliy bankining Denov filiali tomonidan qabul qilingan depozitlar haqida ma'lumot, mln so'mda ²⁶

Depozitlar nomi	01.01.2016y.		01.01.2017y.		O'zgarishi	
	Summasi	ulushi,%	summasi	ulushi,%	summasi	% da
Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar	4842.0	61.2	5596.3	60.1	754.3	15.5

²⁶TIF Milliy banki Denov filialining balans hisoboti ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jamg'rama depozitlar	5.9	0.1	6.5	0.1	0.6	1.1
Muddatli depozitlar	3058.5	38.7	3708.5	39.8	650.0	21.2
Jami depozitlar	7906.4	100.0	9311.3	100.0	1404.9	17.8

TIF Milliy bankining Denov filiali tomonidan qabul qilingan depozitlar 2016 yilda 2015 yilga nisbatan 17.8%ga ko'payib, joriy yil boshiga 9311.3 mln. so'mga etdi. Depozitlar tarkibida talab qilinguncha saqlanadigan depozitlarning ulushi jami depozitlarning 60%dan ortig'ini tashkil qiladi. Shuningdek, muddatli depozitlarning ulushi ham ancha yuqori bo'lib, ular jami depozitlarning 39.8%ini egallaydi. Umuman, TIF Milliy bankining Denov filiali tomonidan qabul qilingan depozitlarning barcha turlarining hajmi oshgan, lekin depozitlar tarkibida talab qilinguncha saqlanadigan depozitlarning ulushi 1.1%ga kamaygan bo'lsa, muddatli depozitlarning ulushi sh kamayish hisobiga 1.1%ga oshgan.

8-jadval

TIF Milliy bankining Denov filiali aktivlari tarkibi (%da)²⁷

t/r	Aktivning turi	01.01.2016	01.01.2017
1	Naqd pullar	0,91	1,47
2	Bosh bankdan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	8,53	9,92
3	Boshqa banklardan olinishi lozim bo'lgan mablag'lar	6,12	7,25
4	Qimmatli qog'ozlar va investitsiyalar	1,46	2,73
5	Mijozlarga berilgan kreditlar	73.1	66.75
8	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar	1,92	2,19
12	Boshqa aktivlar	7.96	9.69
	JAMI AKTIVLAR	100	100

²⁷TIF Milliy banki Denov filialining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, TIF Milliy banki Denov filialining jami aktivlari tarkibida bankning mijozlarga berilgan kreditlarining salmog'I yuqori bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2015yildajami aktivlarning 66.5%dan ortig'inegallagan. 2016 yilgake lib, kreditlarning jami aktivlardagi ulushi oz bo'lsada ko'paygan bo'lib, kreditlar jami aktivlarning 66.7%ini tashkil qilgan. Shunday qilib, bankning kredit portfeli o'sish tendensiyasiga ega. Umuman, TIF Milliy bankining Denov filialida olib borilgan samarali bank ichki nazorati natijasida, filialda bank tomonidan berilgan kreditlar salmog'i oshdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismi iqtisodiyotning real sektoriga berilgan uzoq muddatli kreditlarga to'g'ri keladi. Filialning investitsion kreditlari hajmi 30276.2 mln. so'mni tashkil qiladi. Kredit qo'yilmalari molli y valyuta bilan birga chet el valyutasida ham berilgan.

Kreditlari hajmining ko'payishi asosan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning, jumladan, chet el valyutasida berilgan kreditlar hajmining ko'payishi bilan izohlanadi. 2016 yilda qolgan barcha ko'rsatkichlar ham o'tgan yilga nisbatan oshgan.

Umuman, mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazoratni tashkil etish va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlashi uchun yetarlicha huquqiy asos mavjud. Tijorat banklarida joriy qilingan ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligi bank risklaridan himoya qilinganlik darajasiga, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

2-bob bo'yicha xulosa

TIF Milliy bankida ham ichki nazorat tizimishakllangan bo'lib, u TIF Milliy bank Bosh ofisning ichki nazorat Boshqarmasi va filiialarning Ichki nazorat xizmatidan iborat.

Ichki nazorat asosiy ish yo'nalishlari bo'yicha 2 gurugga, ya'ni bankda kunlik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishi bo'yicha ichki nazorat va banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni

legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratga bo'linadi.

Respublikamizda samarali bank ichki nazoratini tashkil etish asosida bank tizimi yanada rivojlanib, 2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali 2015 yilga nisbatan 20,2 foizga oshib, 9,4 trln. so'mni va kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni, likvidlik darajasi 2016 yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi. Respublikamiz tijorat banklarining umumiy kapitali va depozitlarining miqdori yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgani natijasida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining, shuningdek, banklar aktivlarining yuqori sur'atda o'sish tendentsiyasi yuzaga kelgan.

TIF Milliy bankining Denov filialida olib borilgan samarali bank ichki nazorati natijasida, filialda bank tomonidan berilgan kreditlar salmog'i oshdi. Filial tomonidan jalb qilingan depozitlar salmog'I, aktivlari, umumiy kapitali va kredit qo'yilmalari hajmi ham 2016 yilda 2015 yilga nisbatan o'rtacha 20 foiz atrofida oshgan.

TIF Milliy bankining Denov filialida olib borilgan samarali bank ichki nazorati natijasida, filialda bank tomonidan berilgan kreditlar salmog'i oshdi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismi iqtisodiyotning real sektoriga berilgan uzoq muddatli kreditlarga to'g'ri keladi.

Kreditlari hajmining ko'payishi asosan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning, jumladan, chet el valyutasida berilgan kreditlar hajmining ko'payishi bilan izohlanadi. 2016 yilda qolgan barcha ko'rsatkichlar ham o'tgan yilga nisbatan oshgan.

3-BOB.O'ZBEKISTONDA BANK ICHKI NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1.O'zbekistonda bank nazoratini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashib borayotgani tijorat banklari kapitali barqarorligini ta'minlash va uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Banklar kapitalini oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarorida bank tizimida amalga oshirilishi kerak bo'lgan aniq maqsadlar belgilab berilgan. Xususan, Bazil Qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro standartlar talablariga muvofiq, tijorat banklarini yanada kapitallashtirish, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb etish, resurs bazasini ko'paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobiga banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

O'tgan 2016 yilda mamlakatimiz bank tizimining kapitallashtirish darajasini oshirish, uning likvidligini yanada mustahkamlash, barqarorligini kuchaytirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Bank tizimi faoliyatining o'tgan yilgi ko'rsatkichlari nafaqat xalqaro umum qabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuqori darajalarga erishildi.

2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni va kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qildi. Bank tizimi barqarorligining yana bir muhim ko'rsatkichi hisoblangan likvidlik darajasi 2016 yil yakunlari bo'yicha 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir.

Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalning etarlilik darajasi ko'rsatkichi xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlardan deyarli 3 barobardan ziyodni tashkil qiladi. Shu bilan birga 2016 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining umumiy kapitali oldingi yildagiga nisbatan 20,2 foizga oshib, qariyb 9,4 trln. so'mni tashkil etgan. Bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yildan buyon 64 foizdan yuqori bo'lib, 2016 yil yakunlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 64,4 foizni tashkil etdi va bu talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar ortiqdir.

Samarali bank nazoratining xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishi, bank likvidligi va aktivlari sifati ustidan doimiy monitoring olib borilishi mamlakatimizning barcha tijorat banklariga etakchi xalqaro reyting agentliklari – «Fitch Ratings», «Moody's» va «Standart & Poor's» dan taqdim etilgan «barqaror» ijobiy reyting baholarini yangilash imkonini berdi. «Moody's» xalqaro reyting agentligi esa O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari ketma-ket ettinchi yil «barqaror» deb e'lon qildi. Bank tizimi faoliyatining asosiy indikatorlari, xususan, «banklarning umumiy kapitali etarliligi», «tijorat banklarining likvidligi», «depozitlar hajmining dinamikasi», «kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi» 2016 yil yakunlari bo'yicha yuqori baholarga mos bo'ldi.

Bank kapitali va bankning likvidlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarning belgilangan standartlardan yuqori bo'lishi tijorat banklari kapitali samaradorligidan, bank to'lov qobiliyatining mustahkamlanganligidan, aholi va investorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchioshayotganligidan dalolat beradi. Tijorat banklari kapitalini doimiy ravishda oshirib borish, kapitalning nafaqat etarli bo'lishi, balki ushbu kapitalni moliyaviy jihatdan barqaror manbalar hisobidan shakllantirish bank tizimidagi asosiy muammolardan hisoblanadi.

Ma'lumki, xalqaro va mahalliy bank amaliyotida bank kapitali etarliligi uning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan aniqlanadi. Bank kapitalining hajmi riskga tortilgan aktivlarga nisbatan juda ham past bo'lishi uning inqiroz holatiga tushib, turli xizmatlarni ko'rsatish va hisob-kitoblarni amalga oshirilmay qolishiga olib kelishi mumkin. Kapital etarliligi masalasini hal etishda banklar kapitalning

shunday miqdorini belgilashi kerakki, bir tomondan maksimal daromad va ikkinchi tomondan maksimal likvidlik ta'minlanishi kerak. Bu bank boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Bank kapitalining ahamiyati va funksiyalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, u tijorat banklarini boshqarishda doimo diqqat markazida turadi. Shu sabab, mazkur kapitalga qo'yilgan talab va uni nazorat qilish ham muntazam ravishda olib borilishi kerak.

Kapital etarliligi masalasiga bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan aloxida e'tibor qaratilgan. Xalqaro hisob-kitoblar banki qoshida tashkil etilgan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi dastlab katta o'nlik davlatlari (G10)²⁸ Markaziy banklari Prezidentlari tomonidan 1974 yilda Bazel shahrida tashkil etilgan. 2009 yildan esa barcha katta yigirmalik davlatlari (G20) uning ishtirokchilari hisoblanadi. Bazel qo'mitasi a'zolari bir yilda 4 marta yig'ilishadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi bank sohasini doimiy boshqarish va nazorat qilish bo'yicha yagona standartlar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsadda Qo'mitaga a'zo davlatlarning boshqaruv organlari uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqariladi.

Bazel qo'mitasining asosiy hujjatlari quyidagilar hisoblanadi:

- samarali bank nazoratining asosiy tamoyillari (1997 yil, 2006 yilda qayta ko'rib chiqilgan);
- Bazel I kelishuvi (1988 yil);
- kapitalning etarliligi bo'yicha yangi kelishuv (Bazel II, 2004 yil);
- Bazel III kelishuvi (2010 yil sentyabr)

Har bir kelishuv oldingisini o'zida namoyon etadi va unga qo'shimcha va yangiliklarni o'z ichiga oladi.

Bazel qo'mitasi banklar faoliyatini tartibga solish va nazoratini amalga oshirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratishda xalqaro darajada etakchi tashkilot xisoblanadi. Garchi ushbu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar yuridik kuchga ega bo'lmasada, lekin Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan

²⁸Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, AQSh, Frantsiya, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya.

tavsiyalar va talablar unga a'zo mamlakatlar qonunchiligida aks etadi. Bank kapitalining etarliligi bo'yicha Bazel qo'mitasining uchta asosiy kelishuvlari mavjud: Bazel I, Bazel II, Bazel III. Ushbu standartlar talablari bir-birini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi.

Bazel qo'mitasi 2004 yil iyun oyida tijorat banklari kapitali etarliligini ta'minlash muammosi hamda ular tomonidan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yangi yondashuv «Kapitalni o'lchash va kapital standartlarining xalqaro konvergentsiyasi – Bazel II»ni e'lon qildi. U 3 ta tarkibiy qismdan tashkil topgan – kapitalga qo'yilgan minimal talab (Bazel I asosida), nazorat jarayoni va bozor tartib qoidalari.

Mamlakatimizda Bazel qo'mitasi andozalariga asosan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kapital tarkibi va kapital etarliligiga qo'yilgan talablar me'yoriy hujjatlarda belgilab o'tilgan. Lekin respublikamiz tijorat banklarining kapital tarkibi Bazel andozalaridan biroz farq qiladi, ya'ni bankning ustav kapitalidagi valyuta qismiga teng bo'lgan valyuta aktivlarining qayta baholanishi hisobiga tashkil etilgan devalvatsiya zaxirasi birinchi darajali kapital tarkibiga kiritilgan. Bundan tashqari, tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi ikkinchi darajali kapital tarkibidan o'rin egallaydi.

Bank kapitali etarlilik ko'rsatkichlarida ham Bazel qo'mitasi talablari va mamlakatimiz tijorat banklariga talablar o'rtasida biroz farq mavjud. Jumladan, Bazel talablarida birinchi darajali kapitalning etarlilik darajasi minimal ko'rsatkichi 0,04 (4 foiz), umumiy kapitalning etarlilik koeffitsenti 0,08 (8 foiz) bo'lishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimiz tijorat banklarida esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 0,05 (5 foiz) va 0,10 (10 foiz)ni tashkil etadi.

2008 yildagi iqtisodiy inqiroz davrida bank kapitalini tartibga solish masalasida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tahlilchilarining xalqaro darajadagi yangi yondashuvi ishlab chiqildi. 2010 yil 12 sentyabrda dunyoning 27 ta mamlakati markaziy banklari vakillari banklarning kapital etarliligiga talablarni kuchaytiruvchi «Bazel III» bank faoliyati nazorati me'yorlarining yangi to'plamini tasdiqladi.

Bazel III ning yangi talabiga ko'ra, 1-darajali kapitalning etarlilik darajasi 6 foiz (Bazel II da 4 %), umumiy kapital etarliligi darajasi 8 foiz (Bazel II da 8%) deb belgilandi. Bazel III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan, «Bufer kapitali» deb umumiy nom olgan ikkita: konservatsion va kontrsiklik bufer kapitali tushunchalari kiritilmoqda.

Bazel III talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimiz banklariga qo'yilgan talablarga ham o'zgartirishlar kiritildi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitaliga talablar o'zgartirildi. Regulyativ kapitalning tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasiga nisbati 10 foizdan kam bo'lmasligi kerak edi. 2016 yil 1 yanvardan boshlab K1 ning eng kichik darajasi 0,115 (11,5 foiz) miqdorida, 2017 yil davomida 12,5 foiz darajasida belgilandi. 1-darajali kapitalning etarlilik koeffitsienti 2016 yil 1 yanvardan boshlab eng kichik darajasi 0,075 (7,5 foiz) miqdorida belgilandi.

2019 yil 1 yanvardan boshlab banklar tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarining 3,0 foiz miqdoridagi kapitalni konservatsiya qilish buferini hisobga olgan holda, K1 ning eng kichik darajasini 0,145 (14,5 foiz) miqdorida ta'minlashlari shart bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz banklari kapitallashtirish darajasini oshirishda barcha ichki va tashqi usullardan samarali foydalanishi kerak. Belgilangan vazifalarni bajarishda quyidagi yo'nalishlarda ishlarni tashkil qilish zarur:

- O'zbekistonda Bazel III talablarini joriy etish borasida ko'rsatmalarni ifodalovchi uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish;

- kapital tarkibidagi nobarqaror moliyaviy manbalarni kamaytirish, xususan, devalvatsiya zaxirasini asosiy kapital tarkibidan qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish;

Shuningdek, bank umumiy kapitalida qo'shimcha kapitalning ulushini oshirish, respublikamiz tijorat banklarining qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlashning mavjud imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

Bank nazoratini yanada takomillashtirishda tijorat banklarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish

masalalariga e'tibor qaratish lozim. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturidagi vazifalar ijrosini ta'minlash borasida 2017 yilga mo'ljallangan chora- tadbirlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Bu tadbirlar quyidagilar:

- tijorat banklarida etakchi xalqaro moliya institutlaridagi korporativ boshqaruvni tashkil etish mexanizmini chuqur o'rganish asosida risklarni boshqarish, ichki nazoratni yaxshilash va banklar faoliyatining samaradorligini oshirish borasidagi ishlarni uzluksiz davom ettirish;

- korporativ boshqaruv organlari – aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, bank kengashi, boshqaruv hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi taftish komissiyasi, ichki audit xizmati kabi bo'linmalarning sog'lom bank faoliyati ko'rsatish borasidagi majburiyat va mas'uliyatlarini oshirish;

- banklarni strategik boshqarish, boshqaruv xodimlarining samarali faoliyatini nazorat qilishni ta'minlashda aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar rolini oshirish borasidagi talablarni kuchaytirish;

- bank faoliyati shaffofligining bank nazorati bo'yicha Bazil qo'mitasining eng muhim talablaridan biri ekanligini inobatga olgan holda banklar faoliyati bo'yicha axborotlar ommaviyligini, shu jumladan, banklar veb-saytlariga yillik va oraliq moliyaviy hisobotlarni joylashtirish hamda bank siri to'g'risidagi qonunchilikka xilof bo'lmagan ravishda o'rnatilgan tartibdagi boshqa usullar orqali yanada oshirishni izchil davom ettirish.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirishda, shuningdek, korporativ boshqaruv sohasida yangicha fikrlaydigan, zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali rahbarlar, shuningdek, xorijiy menejerlarni jalb etish, banklar faoliyatining ochiqligini oshirish, ular tomonidan nashr etiladigan audit va moliyaviy hisobot axborotini xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish va jadallashtirish lozim.

3.2. Ichki nazoratni tashkil qilishning umumiy tamoyillari va ularning O'zbekiston bank tizimiga tadbiq etilishi

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi "Kredit tashkilotlarida ichki nazorat tizimini shakllantirishning umumiy asoslari" nomli ma'ruzasida ichki nazoratni tashkil qilishning umumiy tamoyillarini ko'rsatib berilgan. Ichki nazorat tamoyillari ichki nazoratning o'zaro bog'liq elementlarning har birida belgilangan bo'lib, ichki nazoratning o'zi quyidagi 5 o'zaro bog'liq elementdan tashkil topadi:

- Ma'muriy nazorat va operatsiyalar.
- Risklarni aniqlash va baholash
- Majburiyatlarni chegaralash va nazorat qilish
- Ma'lumot va aloqa
- Monitoring va kamchiliklarni bartaraf qilish

Ichki nazorat tamoyillari ichki nazoratning o'zaro bog'liq elementlari har birida namoyon bo'ladi. Masalan. ma'muriy nazorat va operatsiyalarning o'zi uchta tamoyilni oladi. Ushbu tamoyillarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1-tamoyil: Bank Kengashi bank operatsion faoliyatining umumiy strategiyalarini tasdiqlash va davriy kuzatib borish uchun mas'uldir, ayniqsa, bankning umumiy yo'naltirilgan siyosatini; shuningdek, yuqori lavozimdagi shaxslar tomonidan ichki nazorat tizimining samaradorligini monitoring qilinishini ta'minlash. Umuman kengash samarali ichki nazorat mexanizmi yaratilishi uchun javobgardir.

2-tamoyil: Yuqori lavozimli xodimlar Kengash tomonidan belgilangan strategiya va siyosatni amalga oshirilishi bo'yicha javobgardir. Ushbu xodimlar kengash tomonidan berilgan samarali ichki nazorat tizimini yaratish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

3-tamoyil: Kengash va yuqori lavozimli xodimlar tashkilot doirasida o'rnatilgan amallarni va har bir xodimning o'z vazifa majburiyatlarini vijdonan bajarishi bilan bog'liq ahloqiy standartlarni shakllantirishiga yordam berishi kerak.

4-tamoyil risklarni aniqlash va baholashga taaluqlidir.

4-tamoyil: Samarali ichki nazorat tizimi bank tomonidan qo'yilgan maqsadlarga erishishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni doimiy asosda

aniqlashi va baholashi shart. Bunday baholash bank duch kelishi mumkin bo'lgan barcha risklarni qamrab olishi kerak.

5 va 6 tamoyillar esa majburiyatlarni chegaralash va nazorat qilishga bilan bog'liq. 5-tamoyilga asosan, nazorat bank kundalik faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi kerak. 6-tamoyil bo'yicha samarali ichki nazorat tizimi uchun majburiyatlarni chegaralash va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq javobgarlikni xodimlarga yuklanmasligini ta'minlash talab qilinadi.

Ma'lumot va aloqaga bag'ishlangan tamoyillar 3 ta (7-9 tamoyillar) bo'lib, ular quyidagilar:

7-tamoyil bo'yicha samarali ichki nazorat tizimi uchun ichki moliyaviy hisobotlar, operatsion faoliyat va o'rnatilgan tartiblarga amal qilinishi, shuningdek qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan tashqi ma'lumotlar haqida etarli hajmda ko'p tomonlama ma'lumotlar bo'lishi talab etiladi. Ma'lumot ishonchli, o'rinli va etarli darajada bo'lishi kerak.

8-tamoyilning mazmuni shundan iboratki, ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish uchun bank faoliyatining barcha muhim ko'rinishlarni qamrab oluvchi zaruriy ma'lumotlar tizimlari tarqatilishini taminlash kerak. Ushbu tizimlar elektron shaklda saqlanadi va foydalaniladi.

9-tamoyil bo'yicha samarali ichki nazorat tizimi uchun barcha xodimlar to'liq tushunishiga erishish mumkin bo'lgan samarali aloqa kanali mavjud bo'lishi talab etiladi.

Monitoring va kamchiliklarni bartaraf qilishga taaluqli tamoyillar ham 3 ta (10-12 tamoyillar) bo'lib, ularning vazmuni quyidagichadir:

10-tamoyil: Bank tomonidan ichki nazorat bo'yicha ishlab chiqilgan barcha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish uchun muttasil kuzatuvni amalga oshirish zarur. Risklarni monitoring qilish bank kundalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

11-tamoyil: Ichki nazorat tizimini ko'rib chiqishda samarali ichki auditni shakllantirish zarur. Ichki audit xizmati ichki nazorat tizimlarini monitoring

qilishning bir bo'g'ini sifatida Bank Kengashi va o'zining auditorlik komiteti yoki yuqori lavozimli xodimlarga hisobot berib turadi.

12-tamoyil: Ichki audit yoki boshqa nazorat organlari tomonidan ichki nazorat kamchiliklari haqida boshqaruv organlarining yuqori lavozimli shaxslariga o'z vaqtida xabar berilishi va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak.

Bundan tashqari, Bazel qo'mitasi tomonidan 2006 yilda qabul qilingan bank faoliyatini nazorat qilish bo'yicha 25 tamoyil ishlab chiqildi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilgan. Ushbu tamoyillar 7 guruhga bo'lingan.

- Ob'ektivlik, mustaqillik, vakolatlilik, shaffoflik va hamkorlik;
- litseziyalash va tuzulma;
- prudental nazorat va tartibga solish;
- bank nazoratining usullari;
- hisobotlar va ularni oshkor etish;
- nazoratchilarning axloqi va ularning vakolatlari;
- konsolidatsiyalashgan banklar va xorijda faoliyat yurituvchi banklar nazorati.

Ushbu tamoyillarda bank nazoratini tashkil etish asoslari va kapital etarliligi, yirik kreditlar, likvidlilik riski, bozor riski, operatsion risk, kredit riski, mamlakat riski, foiz riski, risklarni boshqarish riski, ichki nazorat va ichki audit kabi bo'limlari bor.

Ichki nazorat tizimini aniq faoliyat ko'rsatishini kuchaytirish maqsadida hamda bankning moliyaviy barqarorliligi va obro'siga havf soluvchi muammolarni aniqlash Bazel qo'mitasining 14-tamoyili talablariga muvofiq bank ichki rahbariyati, shuningdek, rahbariyatdan mustaqil bo'lgan maxsus bo'linma orqali axborotlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Bazel tamoyillari bo'limi faoliyatidagi riskni kamaytirish maqsadida uning amalga oshiradigan amaliyotlar tavsifi va masshtabidan kelib chiqqan holda ichki nazorat tizimini tashkil etish zarurati ham ko'rib chiqilgan.

Umuman, ichki nazoratning zaruriy darajasiga erishish uchun bankda quyidagi asosiy tamoyil va uslublar mavjud bo'lishi kerak:

- Samarali tashkiliy tuzilma.
- Tegishli yo'nalishdagi buxgalteriya siyosati va uslublari.
- Aktivlarning saqlanishiga oid zaruriy uslublar.
- Ichki auditning samarali dasturi.

Bank Kengashi bank strategiyasi va siyosatini ishlab chiqish, shuningdek bank rahbariyati tomonidan zarur choralarini qabul qilish jarayonlarini nazorat qilishga doir tadbirlar bo'yicha ham mas'uldir. Bankning tashkiliy tuzilmasi bank rahbariyatining huquqlari, bo'ysunish tartibi va hisobdorlikni aniq ifodalashi kerak. Bank Kengashining tegishli ko'rsatmalarida xodimlar vakolati doirasi aniq ko'rsatilishi va ular lavozim tavsifnomalariga kiritilishi kerak. Masalan, kreditlash limiti, investitsiyalar va qimmatbaho kog'ozlar savdosiga doir huquqlar shular jumlasidandir.

Xodimlarning majburiyatlari va vazifalari shunday taqsimlanishi kerakki, bir shaxs bir operatsiyani boshidan oxirigacha bir o'zi bajarmasin. Masalan, kredit bo'limining xodimi kredit bo'yicha beriladigan mablag'larni ajratishda yoki hisobvaraqa qabul qilishda ishtirok etmasligi kerak; to'lov hujjatlarini imzolash vakolatiga ega bo'lgan shaxs bankning vakillik hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarini bajarmasligi shart; yakunlovchi balansni tuzuvchi shaxs boshlang'ich hujjatlar bilan ishlamagan bo'lishi kerak.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, har qanday tizimni tashkil qilishda dasturiy ta'minotdan unumli foydalanish ish sifatini va tezligini ta'minlashda muhim o'ringa ega. Videokuzatuv vositalarini o'rnatish, tashqi qo'riqlash bo'limlari bilan bog'langan tashvish-signalizatsiya qurilmalari bilan majburiy jihozlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish orqali tijorat banklarining barcha bo'linmalarida, filiallar, minibanklar, jamg'arma va maxsus kassalar, masofada joylashgan bank uskunalari y'nibankomatlar, terminallar, info-kioskalar va boshda xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirishni amalga oshirish lozim. Plastik kartochkalar bilan hisob –kitob qilish tizimining ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirishidan ishonchli

himoyalashni va maxfiy axborotlarni ximoyalashni ta'minlashga imkon beruvchi yangi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va ma'lumotlar bazasiga kira oladigan shaxslar doirasini qisqartirish hisobiga tovlamachilik faoliyatidan kelib chiqadigan tavakkalchiliklarni oldini olish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalarning bajarilishi banklarda ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan bugungi kundagi eng asosiy vazifalar hisoblanadi. Ularni amaliyotda keng joriy qilishning grafigi ham tasdiqlangan va shu grafik asosida tijorat banklari o'zlarining ichki loyihalarini ishlab chiqqanlar hamda amaliyotga tadbiq etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bank nazoratini xalqaro andoza va talablar asosida yanada takomillashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining standart va tavsiyalarini, Bazel III standartlari hisobga olgan holda, respublika bank amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy etish borasida 2017 yilga mo'ljallangan tadbirlarni bajarishni belgilab berdi. Unga ko'ra, yangi xalqaro standartlarni joriy qilishni davom ettirish, tijorat banklarida reguliyativ kapitalning etarlilik koeffitsienti (K1) ning 2017 yil davomida 12,5 foizdan va 2018 yil 1 yanvar holatiga 13,5 foizdan kam bo'lmasligini ta'minlash, etakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan reyting baholari muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni davom ettirish lozimligi belgilandi.

Bundan tashqari, banklar faoliyatidagi risklarni aniqlash, baholash va boshqarishda xalqaro tajriba va andozalardan keng foydalanish, tijorat banklarining operatsion risklari, jumladan, depozit va foiz operatsiyalari jarayonidagi risklarni tizimli ravishda monitoring qilib borish, bankning obro'si hamda moliyaviy barqarorligiga xavf solishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish, bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasida mas'ul bo'lgan tijorat banklarining tarkibiy bo'linmalari mutaxassislarining tizimli asosda malakalarini oshirib borish lozimligi ko'rsatildi.

Bank tizimi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining

jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-sonli Farmonida bank tizimining yanada rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqqan holda amalga oshirib borish ko'zda tutildi.

Jumladan, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, davlat organlari tomonidan tijorat banklari faoliyatiga, birinchi navbatda, kredit siyosatiga ma'muriy aralashuvlarning oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik, bankning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qiluvchi g'ovlarni tugatish, shuningdek, mijozlarning o'z pul mablag'larini erkin tasarruf etish huquqi to'liq ro'yobga chiqarilishini ta'minlash bo'yicha zurruriy choralar ko'rilishi belgilab berildi.

3-bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston bank tizimi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Bazel III ning yangi talablarini bank amaloyotiga bosqichma-bosqich tadbiriq etilmoqda. O'zbekiston bank amaliyotida ham Bazel III talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz banklariga qo'yilgan talablarga ham o'zgartirishlar kiritildi. 2017 yil davomida 12,5 foiz darajasida belgilandi. 1-darajali kapitalning etarlilik koeffitsienti 2016 yil 1 yanvardan boshlab eng kichik darajasi 0,075 miqdorida belgilandi.

Ichki nazorat tamoyillari ma'muriy nazorat va operatsiyalar, risklarni aniqlash va baholash, majburiyatlarni chegaralash, va nazorat qilish va ma'lumot va aloqa kabi o'zaro bog'liq elementdan tashkil topadi.

2017 yilga ichki nazoratni takomillashtirish bo'yicha tijorat banklarida etakchi xalqaro moliya institutlaridagi korporativ boshqaruvni tashkil etish mexanizmini chuqur o'rganish asosida risklarni boshqarish, ichki nazoratni yaxshilash va banklar faoliyatining samaradorligini oshirish borasidagi ishlarni uzluksiz davom ettirish chora- tadbirlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz bitiruv malakaviy ishni yozish natijasida quyidagi xuloslarni shakllantirdik:

1. O'zbekistonda tijorat banklari ustidan nazorat tizimi shakllangan va takomillashtirib borilmoqda. Biz bank nazoratini ichki va tashqi nazoratga ajratdik. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda Bazel talablari asosida amalga oshiriladi. Tijorat banklarini litsenziyalaydi, kapital bo'yicha minimal talablarni belgilaydi.

2. O'zbekistonda ichki bank nazorati tizimi ham shakllangan, bo'lib, . O'zbekistonda ichki bank nazorati tizimini tashkil qilish bo'icha huquqiy va meyo'riy baza ham yaratilgan va takomillashib bormoqda.

3. Ichki nazorat tizimi bankning kundalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga oid boshqarish mexanizmi bo'lib, u boshqarish siyosati va tartibi, majburiyatlarning taqsimlanishi, vakolatlar, tekshirishlar tartibi, kundalik operatsiyalar ustidan nazoratni olib borish va ular hisobini yuritish, harajatlarni nazorat qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Ichki nazorat tijorat banklarining ichki nazorat boshqarmasi va filiallarning ichki nazorat bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

4. Ichki nazorat -pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir.

5. Ichki nazorat asosiy ish yo'nalishlari bo'yicha 2 gurugga bolinadi, ya'ni bankda kunlik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishi bo'yicha ichki nazorat va banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazoratga bo'linadi.

6. Banklarda kunlik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishi bo'yicha ichki nazoratning o'zi dastlabki, joriy va yakuniy nazoratdan iborat.

7. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishda tijorat banklari bevosita vositachilik rolini bajaradi, chunki iqtisodiyotda banklar deyarli barcha

pul aylanmalarini amalga oshiradi. Shuning uchun banklar faoliyatida ichki nazoratning alohida bir yo'nalishi sifatida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish qoida-tartiblari ishlab chiqilgan.

8. TIF Milliy bankda ham ichki nazorat tizimi, y'ani ichki nazorat xizmati shakllangan bo'lib, TIF Milliy bank Bosh ofisning ichki nazorat Boshqarmasi va filiallarning Ichki nazorat xizmatidan iborat.

9. Samarali bank ichki nazoratini tashkil etish asosida bank tizimi yanada rivojlanib, 2014-2016 yillarda respublikamiz tijorat banklarining umumiy kapitali va depozitlarining miqdori yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan. Bu esa tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmining o'sish tendentsiyasini yuzaga keltirgan.

10. TIF Milliy bankining Denov filialida olib borilgan samarali bank ichki nazorati natijasida, filialda bank tomonidan berilgan kreditlar salmog'i oshdi. Filial tomonidan jalb qilingan depozitlar salmog'I, aktivlari, umumiy kapitali va kredit qo'yilmalari hajmi ham 2016 yilda 2015 yilga nisbatan o'rtacha 20 foiz atrofida oshib, bu ko'rsatkich respublikamiz darajasidan birmuncha pastroq.

11. Hozirgi kundagi ichki nazorat jarayonida axborot texnologiyalari va dasturlardan foydalana olmaslik muammosi mavjud. Banklarda, ichki nazorat xizmatlari mustaqil dasturlarga ega bo'lmagani sababli, eski usulda, qog'oz asosida tekshirish davom etib kelmoqda.

Bank faoliyatining ichki nazoratning yo'nalishini o'rganish va amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi takliflar shakllandi:

1. Shubxali va gumonli operatsiyalarni aniqlash, shuningdek axborotlar xavfsizligini ta'minlash va bank mijozi to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlash jarayonlarini takomillashtirish uchun tijorat banklarining ichki nazorat tizimida yangi texnologiyalar va dasturiy taminotlardan foydalanishni joriy qilish va kengaytirish.

2. Bank ichki nazoratini bankka maksimal darajada foyda keltirishi uchun unga bankniig boshqa bo'limlariga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlar ochib

berilishi lozim. Ishonch muhiti esa kuchli va zaif tomonlarni baham ko'rishga imkon yaratadi.

3. Ichki nazorat xodimlari xolis bo'lishi, tashqi ta'sirlardan va mustaqil fikrlashlariga halaqit beruvchi omillardan ozod bo'lishi lozim.

4. Bank ichki nazoratni tegishli tartibda tashkil etish uchun doimiy faoliyatga tasir etmagan holda, ichki nazorat xodimlarining o'rnini vaqti-vaqti bilan almashtirib turish ham tavsiya etiladi. Bu esa xodimlarning bir holatda qotib qolmasdan, yangilikka intilishiga turtki bo'ladi.

5. Bankning kuzatuv organlari bank ichki nazorat bo'limi ishini baholab borishlari lozim. Bunda ishlar etarlicha, qoniqarli tashkil etilgan joylarda tekshiruv natijalariga ishongan holda, riskni baholashlari va muammolarni aniqlashda birlamchi mexanizm sifatida ichki nazorat ma'lumotlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'risida»gi Qonun. 1995-yil 21-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni 2016-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2003-yil 30-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni 2004-yil 26-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1992-yil 9-dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-sonli «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4720-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 oktyabrdagi «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-2420-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 martdagi «O'zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2325-sonli Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 martdagi PQ-2325-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat tijorat Xalq bankining kapitallashuv darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 26 oktyabrdagi PQ-2420-sonli «Banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma, 2008-yil 3-may №674

17. Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki meyoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom 2000-yil 22-fevral №466

18. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida Nizom 2009-yil 28-yanvar

19. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish yuzasidan ichki nazoratni amalga oshirish Qoidalari 2006-yil 19-iyun.

20. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari, 2009-yil 23-oktabr №2023

21. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlari talablarini bo'zganliklari uchun tijorat banklari, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari

va lombartlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan qo'llaniladiga choralar va sanksiyalar to'g'risidagi Nizom, 2009-yil 29-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

22. Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida (ikkinchi to'ldirilgan nashr) -T.: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 yil, 528 - bet.

23. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz iqtisodiyotimizda olib borilayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish,xususiy mulkchilik,kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir."-T.: – T.: O'zbekiston, 2017 yil, 68 - bet.

24. Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." – T.: "O'zbekiston" 2017 yil, 104 - bet.

25. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 56 - bet.

26. Mirziyoyev Sh. M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 48 - bet.

27. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramizi." T.: - "O'zbekiston" 2017 yil, 48 - bet.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

28. U.Azizovvaboshqalar. Bank ishi. Darslik–T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2016 yil.

29. Sh.Z.Abdullayeva. Bank ishi. Darslik–T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2010 yil.

30. Лаврушин О.И.. Банковское дело. -М.: Финансы и статистика, 2005г.

31. Маковникова Г.А., Кантров В.Е. Финансовый менеджмент. – М.: ЮРАИТ, 2011 г.

32. S.Norqobilov, O. Abdusalomova Banklarda audit -T.: TMI. 2005y.
33. S.Norqobilov, N.Dadaboeva, O". Jo'raev. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. Darslik–T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007 yil.
34. K.N.Navruzova, N.Karimov,U.Ortiqov. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: Davr. 2012y.
35. A.Omonov va T.Qoraliyev. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.:Iqtisod-Moliya. 2014y.
36. М.С.Суханов. Организация внутреннего контроля в коммерческом банке. – М.: 2001г.

Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar):

37. F.Mullajonov. “O'zbekiston bank tizimi: barqaror rivojlanish, xalqaro mezonlarga erishish yo'lida” “ Bozor, pul va kredit” jurnali 2015-yil 1-son.
38. Banklarning moliyaviy barqarorligi va resurslari etarligini xalqaro me'yorlar va standartlar talablari asosida baholash va boshqarish: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. 464 b.
39. “Bozor, pul va kredit” jurnali 2017-yil 1-son.

Internet saytlari:

40. www.lex.uz(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami)
41. www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
42. www.finance.uz(Moliyaviy-iqtisodiy tahlil portali)
43. www.ahbor.uz(Ahbor-Reyting reyting agentligi)